

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI**  
**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK \_\_\_\_\_

**MAGISTRATURA BO'LIMI**  
**O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**«TASDIQLAYMAN»**

**«HIMOYAGA QO'YILDI»**

**Magistratura bo'limi boshlig'i**

**Kafedra mudiri**

**N.I. Asqarov \_\_\_\_\_**

**D.A. Nabiyeva \_\_\_\_\_**

**“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017-yil**

**“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017-yil**

**“O`zbek tilida inson tana a`zolari bilan bag'liq frazeologizmlarning  
leksik semantik xususiyatlari”**

**MAVZUSIDA**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

**Bajardi: Toshtonova Muxlisa**

**O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti**

**ANDIJON – 2017**

## **Mundarija:**

|                                                                                                                 |              |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| <b>SO‘Z BOSHI.....</b>                                                                                          | <b>3-6</b>   |
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                              | <b>7-16</b>  |
| <b>ASOSIY QISM:</b>                                                                                             |              |
| <b>I BOB. Inson tana a‘zolarini bildiruvchi frazeologizmlarning komponent tahlili.....</b>                      | <b>17</b>    |
| 1-fasl. Frazeologizm va so‘z birikmasi.....                                                                     | 17-26        |
| 2-fasl. O‘zbek tilida inson tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologizmlar.....                                    | 27-29        |
| 3-fasl. Inson tana a‘zolari bilan bog‘liq iboralarning uslubiy xususiyatlari.....                               | 30-36        |
| <b>II BOB. Inson tana a‘zolarini nomlovchi frazeologizmlar.....</b>                                             | <b>37</b>    |
| 1-fasl. Frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyati.....                                                     | 37-48        |
| 2-fasl. Frazeologik birkliklar – badiiy tasvir vositasi sifatida.....                                           | 49-51        |
| <b>III BOB. Inson tana a‘zolarini bildiruvchi iboralarning imo-ishoralar orqali ifodalanishi.....</b>           | <b>52</b>    |
| 1-fasl. Inson tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologizmlarda harakat ma‘nosini berilishi.....                    | 52-54        |
| 2-fasl. O‘zbek tili izohli lug‘atida imo-ishora ifodalovchi frazeologizmlarning berilishi.....                  | 55-64        |
| 3-fasl. Inson tana a‘zolari bilan bog‘liq imo-ishora ifodalovchi fe‘llarning frazeologizm orqali berilishi..... | 65-71        |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                                              | <b>72-73</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>                                                                           | <b>74-75</b> |

# **“O`zbek tilida o`zbek tana a`zolari bilan bog`liq frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

## **ASOSNOMA**

**Mavzuning dolzarbligi:** Mamlakatimizning istiqbolga erishishi o`zbek xalqining madaniy-ma`maviy hayotida ulkan ijobiy o`zgarishlarni yuzaga kelishiga sabab bo`ldi. Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning ma`naviyati, madaniyati, axloqiy e`tiqodlari, milliy ruh va yangi mazmun bilan to`lmoqda. O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov “Xalqning milliy madaniyati va o`ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo`lishi o`zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to`liq ro`yobga chiqarish”<sup>1</sup> davlat ahamiyatiga molik ekanligini ta`kidlagan edi. Darhaqiqat, o`zbek tili sohasida milliy ruh va milliy imkoniyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. So`nggi yillarda o`zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo`nalishlari rivojlandi. Bular ichida ayniqsa “tilga izchil yondashish va funksional tahlil”<sup>2</sup> yo`nalishlari alohida o`rin tutadi. Til va nutq yaxlit bir hodisaning ikki tomoni sifatida belgilanadi. Til hodisalari esa til tuzilishidagi o`rni, roli, nutqda qo`llanishi kabi hususiyatlariga qarab tahlil etila boshlandi.

Hozirgi bosqichda frazeologik majmuasini ilmiy o`rganishga katta e`tibor berilmoqda. Shunday tadqiqotlar natijasida frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida qaror topdi. Bu holat nutqda keng qo`llab kelinayotgan frazeologizmlarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni taqazo qiladi.

So`zlar tilning barcha leksik, semantik, grammatik sohalarida keng o`rganilayotgan bo`lsada frazeologizmlar, bu sathlarda har tomonlama o`rganildi

---

<sup>1</sup> Karimov I. O`zbekiston buyuk kelajak sari. - T, O`zbekiston, 1998, 19-bet.

<sup>2</sup> Gulomov A., Ne`matov H. Ona tili ta`limi mazmuni. Ona tili o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma. - T.: “O`qituvchi”, 1995, 6-bet.

deya olmaymiz. Frazelogizmlarning ma'no tarkibi, ma'no taraqqiyoti, hosil bo'lish yo'llari kabilar o'z tadqiqotchilarini talab qiladi.<sup>3</sup>

Frazelogizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish hususiyatlariga ega bo'lgan til birligidir. Ular leksikadan yuqori, gapdan quyi sathda tudradigan til hodisasi sifatida tilshunoslarning e'tiborini tortib keldi.

Frazelogizmlarning shakllanishi murakkab kechadi. Hozirga qadar frazeologik shakllanish so'z yasallishining davomi sifatida tadqiq etilib, asosiy e'tibor so'z yasallishining hususiyatlariga qaratildi. Natijada frazeologik shakllanishning o'ziga xos vosita va usullari yetarli darajada tadqiq etilmadi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning semantik, grammatik, uslubiy tadqiqotiga doir qator ishlar mavjud. Ammo frazeologizmlarning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillar ifodaviy va mazmun jihatidan qaror topishida so'zlarning o'zni, ma'noviy shakllanish qirralari, shakllanishning motivlovchi va derivatsiya asoslari, mavjud umumtil frazeologizmlari asosida yangi frazeologizmlar shakllanishining leksik va semantik hususiyatlari kabi masalalar hozirgi tilshunoslikning dolzarb muammolari sarasiga kiradi.

**Tadqiqotning maqdad va vazifalari.** O'zbek tilshunosligida frazeologizmlar Grammatik, semantik, uslubiy yo'sinda o'rganilgan bo'lishiga qaramay, ularning shakllanish hususiyatlarini aniqlash masalalari muammoligicha qolmoqda. Shunga ko'ra, mazkur tadqiqotda o'zbek tili frazeologizmarining shakllanish tamoyillarini tadqiq etish asosiy maqsad qilib olindi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim deb topildi:

- Frazelogizmlar shakllanishining nazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillarini aniqlash;

- Frazelogizmlar shakllanishining lisoniy va nolisoniy omillari, shakllanishning derivatsiya va motivatsiyalovchi asoslarini belgilash;

---

<sup>3</sup> Xojiyev A., Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tili va uni o'rganishni aktual masalalari. O'zbek tili va adabiyoti. –T., 1992, 5-son.

- Frazelogizmlar shakllanishida soʻzlarning oʻrni va shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash;

- Frazelogizmlarni barqaror birikmalar, birikma terminlaridan saralash, frazeologizmlar tarkibidagi u yoki bu leksik semantik va tematik guruhlariga tegishli faol soʻzlarni taxlil qilish;

- Frazelogizmlarni shakllanishida semantik omillar, frazeologik transpozitsiya va spontan maʼnolarining yuzaga kelish shartlarini belgilash, frazeologik maʼnoni yuzaga keltiruvchi omillarni tadqiq etish;

- Frazelogizmlarning lisoniy va nolisoniy ehtiyoj asosida paydo boʻlish hususiyatlarni oʻrganish.

**Tadqiqot** uchun **obyekt** qilib oʻzbek badiiy asarlari asarlar, oʻzbek xalq maqollari va topishmoqlari toʻplangan lisoniy materiallar, shuningdek, Sh.Rahmatullayev<sup>4</sup>, X.Berdiyoyev, R.Rasulov, B.Yoʻldoshevlar<sup>5</sup> hamkorligida M.Sodiqova<sup>6</sup>, E.Umarov<sup>7</sup>, tomonidan frazeologik lugʻatlar, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”lardagi frazeologik materiallardan, shuningdek, A.Mamatov<sup>8</sup>ning ishlaridan foydalanish nazarda tutildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Oʻzbek tilshunosligida frazeologizmlar grammatik, semantik, funksional-uslubiy jihatdan u yoki bu tarzda oʻrganilgan. Biroq ularning shakllanish omillari yaxlit ilmiy yechimini topmagan. Ushbu magistrlik dissertatsiya inson tana aʼzolari bilan bogʻliq frazeologizmlarning leksik-semantik hususiyatlariga bagʻishlangan dastlabki tadqiqot ishidir. Unda quyidagi ilmiy yangiliklarni yechish maqsad qilib olingan:

- Frazelogizmlarning maʼnoviy tasniflash;

- Inson tana aʼzolari bilan boʻgʻliq frazeologizmlarni leksik-semantik hususiyatlarga ajratish;

---

<sup>4</sup> Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati. – T., 1962.

<sup>5</sup> Berdiyoyev H., Rasulov H., Rasulov R., Yoʻldoshev B. Oʻzbek frazeologiyasidan materiallar. Oʻquv qoʻllanma. I-II-III qismlar. – Samarqand, 1971, 1979, 1983.

<sup>6</sup> Sodiqova M. Ruscha-oʻzbekcha lugʻat. – T., “Fan”, 1971.

<sup>7</sup> Umarov E.A. Frazelogicheskiy slovar. – “Xazoyin-ul-maoniy” Alisher Navoiy. – T., 1971.

<sup>8</sup> Mamatov A.E. Oʻzbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalari. dok. dis. avtoreferati. – T., 2000.

- Frazelogizmlar shakllanishida soʻzlarning qoʻllanilish doirasi va imkoniyatlari haqida fikr yuritish;

- Frazelogizmlar tarkibida muayyan leksik-semantik va tematik guruhlariga tegishli leksemalarning ifoda etilishini aniqlash va shakllanishida faol ishtirok etuvchi soʻzlarni tadqiq etish.

## KIRISH

Mamlakatimiz istiqlolga erishishi tufayli o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotiga ulkan ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Istiqlol tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, axloqiy e'tiqodlari milliy ruh va yangi mazmun bilan tiklanmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish" davlat ahamiyatiga molik ekanligi ta'kidlangan edi. Darhaqiqat, o'zbek tili sohasida ham milliy ruh va imkoniyatlarini tiklash uchun harakat kuchaydi.

So'ngi yillarda o'zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo'nalishlari rivojlandi. Bular ichida ayniqsa, "Tilga izchil yondashish, funksional tahlil" yo'nalishlari alohida o'rin tutadi. Til va nutq yaxlit bir hodisaning ikki tomni sifatida belgilandi. Til hodisalari esa til tizimidagi o'rni, roli, nutqda qo'llanilishi kabi hususiyatlariga qarab tahlil etila boshlandi. Hozirgi bosqichda ishlarning frazeologik majmuasini ilmiy o'rganishiga katta ahamiyat berilmoqda.

Shunday tadqiqotlar natijasida frazeologiya tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida qaror topdi. Bu holat nutqda keng qo'llab kelinayotgan frazeologizmlarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni, so'zlar tilning barcha leksik-semantik, grammatik sathlarida keng o'rganilayotgan bo'lsada frazeologizmlar bu sathlarida har tomonlama o'rganildi, deya olmaymiz. "Frazeologizmlarning ma'no tarkibi, ma'no taraqqiyoti, hosil bo'lishi yo'llari kabilar o'z tadqiqotchilarini talab qiladi".

Mazkur muammolarni monografik yo'sinda tadqiq etish esa tilshunosligimiz uchun muayyan ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish shakllariga ega bo'lgan birlikdir. Ular leksikadan yuqori, gapdan quyi sathda turadigan til hodisasi sifatida tilshunoslarning e'tiborini tortib keladi.

Tilshunosligimizda yaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar o'zbek tili frazeologiyasining shakllanish va taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Xususan, frazeologizmlarning u yoki bu muammoni tadqiq etishga bag'ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. O'nlab monografiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, frazeologik lug'atlar yuzaga keldi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni uslubiy o'rganish ham yo'lga qo'yilganligini ta'kidlash lozim. O'zbek yozuvchi va shoirlari asarlari frazeologizmlarining uslubiy qo'llanish xususiyatlari ko'pgina nomzodlik dissertatsiyalarida o'z aksini topgan.

Ammo bu tadqiqotlarda frazeologizmlarning uslubiy jixatlari badiiy ijodkorlarning frazeologik uslubi va ularning frazeologizmlardan foydalanish mahorati batafsil yoritilgan emas. Bu o'rinda B.Yo'ldoshevning doktorlik dissertatsiyasi ta'kidlangan kemtiklikni to'ldiradi. Mamatovning doktorlik dissertatsiyasida ilk bor frazeologizmlar funksional uslubiy jihatidan tizimli o'rganilib, ularning funksional-uslubiy jihatdan tizim holatida tavsifi, nutq jarayonidagi uzual, okkazional vazifalari badiiy matndagi pragmatik imkoniyatlari kabi masalalar boy til materiallari asosida tadqiq etildi.

Frazeologizmlarning shakllanishi murakkab kechadi. Hozirga qadar frazeologik shakllanish so'z yasashning davomi sifatida tadqiq etilib asosiy e'tibor so'z yasashning xususiyatlariga qaratildi. Natijada frazeologik shakllanishning o'ziga xos vosita va usullari yetarli darajada tadqiq etilmadi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning sematik, grammatik uslubiy tadqiqotiga doir qator ishlar mavjud. Frazeologizmlarning shakllanishida insoniy va noinsoniy omillar, ifodaviy va mazmun jihatidan qaror topishida so'zlarning o'rni ma'naviy shakllanish qirralari, shakllanishning motivlovchi va derevitsiya asoslari mavjud umumtil frazeologizmlari asosida yangi frazeologizmlar shakllanishining leksik va semantik xususiyatlari kabi masalalar Mamatovning doktorlik dissertatsiyasida yoritib berilgan.

Frazeologizm ham lugʻaviy birlik sanaladi. Frazeologizmlar ham, xuddi soʻzlar kabi, shakl va maʼno butunligiga ega. Soʻzning shakliy tomonini tovushlar hosil qilsa, iboralarning shakliy tomoniniga ega soʻzlar tashkil etadi: yoqlamoq, yon bosmoq, rahm-dil, koʻngli boʻsh kabi.

Frazeologizmlarning komponentlari faqat shakl-tovush tomoni bilan soʻz holida boʻladi. Frazeologizm tarkibida u maʼno butunligiga ega boʻlmaydi. Shu sababli frazeologizm tarkibidagi biror soʻz isteʼmoldan chiqqan boʻlsa ham, frazeologizmlar yoʻqolmaydi, boshqa til borligiga, aytaylik, soʻzga aylanmaydi. Misollar: U qizning burnini asta chimchilab, qulogʻidan choʻzib jigʻiga tegdi-da, moʻylovlarini selkillatib koʻrdi. (O.). Shanba kuni Qoʻtirdala tomondan koʻtarilgan chang odamlarning enka-tinkasini chiqarib yuborgandi. (Mirmuhsin)... bosmachilar qishloqni bosganda hammaning oʻpkalari yorilib, uy-uylariga yashirina bolishdi. (H.Tursunqulov).

Oʻzbek tilshunosligida frazeologiyaning nazariy masalalari dastlab 50-60 yillarda oʻrganila boshlanib, Sh.Rahmatullaevning nomzodlik tadqiqotida frazeologizmlarning grammatik tabiati, doktorlik ishida esa lugʻaviy jihatlari oʻrganildi.

Muhimi, bu ishlarda frazeologizmlar lugʻaviy birlik sifatida oʻrganilishi zarur ekanligi asoslab berildi. Frazeologizmlar lugʻaviy birlik boʻlganidan, xuddi soʻzlar kabi, gapda bir boʻlak vazifasida keladi. Misollar: Qosh qoʻyaman deb koʻz chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda-sonda roʻy berib turibdi. ("Oʻzbekiston madaniyati") Koʻz ochib yumguncha ming piyoda va suvori kishilar paydo boʻldi. (A.Qaxxor) Komissiya hayron boʻlib qoldi, ammo hech kim meni qaytarishni ogʻziga olmas edi. (A.Qaxxor) Birinchi gapdagi frazeologizm aniqlovchi, ikkinchi gapdagisi hol, uchinchi gapdagisi kesim boʻlib kelayapti.

Frazeologizmlarning semantik strukturasi frazeologik maʼno va qoʻshimcha ottenkalardan iborat boʻlmaydi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan maʼlumot frazeologik maʼno deyiladi. Endi toʻrtinchi rotani ham

ratsiya bilan taxmin qilsak, oshiq olchi bo'lardi. (I.R) Bu yerda ekanligingizni eshitib ko'zimga hech narsa ko'rinmadi. Birinchi gapdagi frazeologizm belgi, ikkinchi misoldagisi esa harakatni bildiradi.

Frazeologizmlar, so'zlar kabi yaxlit bir ma'no (belgi, harakat kabilarni) ifodallasada-da, lekin frazeologik ma'no ko'p jihatdan leksik ma'nodan farq qiladi. Shu sababli frazeologizmlarda frazeologik ma'no leksik ma'noga teng bo'lmaydi. Qiyoslang: o'ta ketgan uchiga chiqqan, beqiyos - yer bilan osmonga, albatta - turgan gap, hech qachon - ikki dunyoda (ham, yashirin (hufiya) -eng ichida. Keltirilgan frazeologizmlar o'z sinonimlarini so'zlarga nisbatan birinchidan, ma'noni kuchli darajada ifodalasa, ikkinchidan ular obrazli ottenkasiga ega.

Umuman, frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng murakkab bo'ladi. Ko'pgina frazeologizmlar ma'nosida yo'q komponent bo'ladi. Masalan: yoqasini ushlamoq, boshida yong'oq chaqmoq, yeru-ko'kka ishonmaslik oddiygina hayron bo'lish, nihoyat darajada azoblash, o'ta darajada ardoqlashdir. Demak, bu frazeologizmlar ma'nosida, o'ta (ortiq) darajada komponenti bor.

Frazeologizmlar garchand so'zlar kabi yaxlit ma'no ifodalsada lekin frazeologik ma'no bilan leksik ma'noning tabiati bir xil emasligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar sintaktik jihatdan so'zlardan farqli belgi-xususiyatlarga ega bo'lganliklari uchun ham tilda paydo bo'lgan va yashab keladi.

Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishini ko'rdik. Lekin, frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarning leksik-grammatik imkoniyatlari, ularning to'g'ri ma'nolari asosida birikishidan hosil bo'lmaydi. Shuning uchun ham frazeologizmlarning ma'nosi uning komponentlarining to'g'ri ma'nosi umumlashmasidan iborat bo'lmaydi. Masalan: qo'yniga qo'l solmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, frazeologizmlarning ma'nosi tarkibidagi so'zlar ma'nolaridan kelib chiqmaydi. Chunki frazeologizmlar so'z birikmasi tarkibidagi biror so'zni yoki butun birikmani ma'lum bir obraz asosida ko'chma ma'noda

qo‘llash yo‘li bilan hosil bo‘ladi, uning ma’nosi ham shu yo‘l bilan hosil bo‘ladi. Misol: Yaxshi odam oshini yer, yomon odam boshini yer (maqol)... bo‘ynida qip-qizil galstuk loladek yashnab turar, og‘zi qulog‘ida edi (A.Mirahmedov).

“Boshni yemoq” frazeologizmining ma’nosi yemoq fe’lining ko‘chma ma’nosi asosida hosil bo‘lgan. Og‘zi qulog‘ida frazeologizmining ma’nosi esa butun birikmani obrazli tarzda ko‘chma ma’noda qo‘llash asosida hosil bo‘lgan. Ko‘p ma’noli (kamchilik) hodisa leksikada juda taraqqiy etgan. So‘zlarning juda ko‘p qismi ko‘p ma’nodadir.

Frazeologiyada bunday emas. Frazeologizmlarning asosiy qismi ma’noli. Lekin, ikki va undan ortiq ma’noga ega frazeologizmlarda ham uchraydi, masalan: eskini yamaguncha essing ketadi, - deb bekorga aytilmagan axir . (Sh.G‘ulomov) Mana hatto Kimsan uch kundan beri normani oshirib ketayapdi. Prorabi maqtab esi ketdi. (As.M.) bu kunlarda jangchi goh o‘ziga kelib, goh bexush bo‘lib ketdi. (As.M.) Ayb menda, - dedi Jo‘ra dangal - ana, endi o‘zinga kelding (N.S.) Ishning ko‘zini biladigan kishining qo‘liga tushgan mashina yomon ishlashi mumkin emas. (“qizil O‘zbekiston” Qo‘lga tushgansiz.... Hafa bo‘lmang, jonim! (O.)

Xuddi leksikada bo‘lgani kabi, frazeologiyada ham omonimiya, sinonimiya, antonomiya kabi xodisalar bor. Omonimiya. Bir xil komponent (so‘zlardan tuzilgan frazeologizmlar o‘zaro bog‘lanmagan (tomoman boshqa-boshqa) ma’noni fodalashi mumkin. Bu hodisa frazeologik omonimiyadir. Masalan: Elmurod uning gapini jiddiy, lekin og‘rinib tingladi. Keyin chug‘urlashib, uyni boshiga ko‘targan bolalarga qayrildi. (P.T.) ... Kun peshindan oqqanda, cho‘l changini boshiga ko‘tarib, qandaydir motatsikl chiqib qoldi. (Sh.G‘ulom).

Siz xalqimizning baxt-saodati uchun kurashdingiz. Xalqimiz sizni hurmatlab, olqishlar bilan boshiga ko‘taradi. Frazeologizmlar so‘zlardan tarkib topishi tufayli tilda frazeologizm-omonimlar juda kam miqdorni tashkil etadi.

Sinonimiya (ma’nodoshlik) hodisasi frazeologiya uchun ham xarakterli: kayfi buzuq-ta’bi tirriq, toqati toq bo‘lmoq - sabr kosasi to‘lmoq, yaxshi ko‘rmoq-

ko'ngil bermoq kabi: U bir qarashdayoq oq suyaklari chiqqan, kampirde xon yuzi tirishib, lablarining qimtinib turishidan Jonuzoq otaning ta'bitirriq ekanini payqadi. (S.An.) Yodgorbek kayfiyatingiz buzuqroq ko'rinadimi? (N.S.) Tojiboyo'z qiliqlari bilan uning sabr kosasini to'ldirdi. (P. T.) Qabulxonada kutib o'tiraverib toqati toq bo'lgan arzgo'ylar rais oldiga kirishga intilardilar. (N.S.)

Antonimiya. Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi iboralar antonim-frazeologizmlar deyiladi: ko'kka ko'tarmoq-yerga urmoq, yuzi yorug'-yuzi shuvit, ko'ngli joyiga tushmoq-yuragiga g'ulg'ula solmoq kabi: Ahli majlis ko'klarga maqtar edi. (A.Qadiri) Ular ham necha yil non-qatiq bo'lgan raislarni yerga urdilar (Sh.Rashidov) G'ulomjon paxtalarni qiyg'os ochilib turganini hali qo'shnisini terim boshlamaganini ko'rib ko'ngli ancha joyiga tushdi. (M.Ism) Rahmatulla bir tomondan yuragiga g'ul-g'ula tushib, bir tomondan, ko'nglining bir burchagida esa bir umid paydo bo'lib oblastga bordi. (A.Qodiri)

Xuddi leksikadagi kabi, frazeologiyada ham o'z va o'zlashgan qatlam bor. Frazeologiyaning asosiy qismi o'z qatlamiga oid frazeologiyalardan iborat, o'zlashma qatlam kam miqdorni tashkil etadi. Lekin, birinchidan so'z o'zlashtirishga nisbatan frazeologiya juda kam darajada bo'lsa, ikkinchidan, frazeologizmlar o'ziga tildan aynan o'ziga emas, asosan sayqallab olingan.

Masalan: g'isht qolipdan ko'chdi frazeologizmi tojikcha "g'isht as qolip barxestan" frazeologizmining sayqallab o'zlashtirishdan kelib chiqqan. Tojik va o'zbek tillarida bir xil ma'noli juda ko'p frazeologizmlar mavjudki, ularning qaysi tildan qaysinisiga o'zlashtirilganini aniq aytish qiyin. Qanday shamol uchirdi-qadam shamol paront. Boshi toshdan bo'lsin-sara shassang shavat. Gap sotmoq-gap firo'xtan.

Keyingi vaqtlarda rus tilining ta'sirida ham ko'pgina frazeologizmlar paydo bo'ldi: temirni qizig'ida bos (jelezo-poka goryacho) barmoq orasidan (smotrit s vospolsi) kabilar.

Xuddi leksikada bo‘lgani kabi frazeologiyada ham ayrim birliklarni eskirishi va yangi frazeologiyalarning paydo bo‘lish xodisasi bor. Lekin eski va yangi juda kam miqdorni tashkil etadi. Frazeologizmlarning asosiy qismi zamonaviy qatlamga oiddir. Eski qatlamga oid frazeologizmlarga misol sifatida Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan quyidagi iboralarni keltirish mumkin:

Yo ulus ichra yuz suyun sochib,

Yo olibon boshini biryon qochib

(“Xayratul Abror”)

Yuz suyini sochib-obro‘sini yo‘qotib.

Begunoh to‘ksang Navoiy qonini yo‘qdir g‘ami

Kim seni ko‘rgan dame qoshim senga qilish halol

(“Navodir ush-shabob”)

qonini halol qilmoq-o‘ldirmoq

Ayrim frazeologizmlar vareant sifatida eski qatlamga oid bo‘ladi, hozirgi adabiy tillarda ularning qandaydir vareanti qo‘llanadi.

Misollar:

Lahza-lahza chiqdimu chekdim yo‘lida intizor

Keldi jon og‘zimgayu, ul sho‘xi badxo‘ kelmadi

(“Bado’e ul-vasat”)

Silkibon ul yaxshi yomonga eng,

Aylab ulus yo‘qina borini teng

(“Xayratul Abror”)

Bu misollardagi jami og‘ziga kelmoq, eng silkimoq frazeologizmlari o‘rnida hozirgi o‘zbek tilida *joni xalqimiga kelmoq, qo‘l silkimoq* frazeologiyalari qo‘llanadi: joni xalqimiga kelgan kapitan qayoqqa borishini bilmay, kemani kechasi bilan noma’lum yo‘llardan ilon izi qilib aylantirib chiqdi. (As.M.). Bas, siz bilan biz, Tojiboy aka bu ishga rahbarlik qilish o‘rniga qo‘l siltar ekanmiz, jinoyat qilgan bo‘lamiz va buning uchun xalq oldida javobgar bo‘lamiz. (P.T.)

Xuddi so‘zlar kabi, frazeologizmlar ham stilga nisbatan neytral yoki uslubning biror turiga mansub bo‘ladi. Lekin, frazeologizmlarning asosiy qismini neytral frazeologizmlar juda ko‘p miqdorni tashkil etadi. Stilning biror turiga xoslangan frazeologizmlar juda kam miqdorni tashkil etadi. Masalan: ko‘ngli to‘q, aqlini yemoq, boshi qatmoq, yo‘ldan urmoq, ichi toshmoq, zardasi qaynamoq, tili bir qarich frazeologizmlari stilga nisbatan neytraldir. Stilistik xoslangan frazeologizmlarga misol sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: Tezda maktab qurilishi amalga oshishini o‘ylab xursand bo‘lgan Elmurod dadil odimlar tashlagan xolda qandaydir bir kuyni xirgoyi qilib borar edi. (P.T.)

U keng yag‘rinli, quloch ko‘krakli, butun dov jussasidan quvvat barq urar edi (O.). **Haqqiqatdan ham Ashuraliev sog‘aygach vrachga bitta quling o‘rgilsin qora ko‘l teri keltirib berdi** (“Mushtum”)

Bu misollardagi amalga oshmoq, ko‘proq yozma (rasmiy) usulbga, barq urmoq oddiy so‘zlashuv uslubiga oiddir.

2-iboralar tarkibida qo‘llangan o‘simlik nomlari. Tarkibida o‘simlik nomlari ifodalangan frazeologizmlar doirasida shakllangan frazeologizmlar xilma-xil ma’nolarni ifodalaydi. T.Z.Cherdanueva “tildagi ko‘plab erkin birikmalar o‘ziga xos bo‘lmagan tushuncha yoki voqea xodisalarni ifodlay boshlaydiki, bu xolat ko‘plab frazeologizmlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi,” deb, ta’kidlaydi. Masalan, “Qovun tushirmoq” erkin birikmasi qovunni tushirib yuborish extiyotsizlik qilish xolatini ifodalaydi. Extiyotsizlik tufayli qovunni tushirib yuborish, tabiiyki kishilarda salbiy emotsiyani yuzaga keltiradi.

Mana shu voqealikni obrazli ifoda etish asosida “qovun tushirmoq” erkin bog‘lamaning suxbat mavzusiga qovishmaydigan noo‘rin gap-so‘z aytmoq. (O‘TFL.) Frazelogik ma‘nosi shakllanadi. Frazelogizmlarning shakllanishi so‘zlarning shakllanishidan birmuncha farqlanadi. Ularning shakllanishi turli davrlardan va har xil ijtimoiy-hayotiy voqealar, tasavvurlar, hayotiy tajribalarning umumlashuvi asosida ro‘y beradi. Frazelogizmlar ma‘lum bir obraz asosida quriladi. Shu obrazni gavdalandirishda har xil predmet, voqea-xodisa, tabiatdagi har xil mavjudotlar tasavvurlarning nomlaridan foydalaniladi.

Shuning uchun ham frazemalarni shakllanishi doirasi jihatidan o‘rganish alohida ahamiyatga ega. A.Mamatovning nomzodlik dissertatsiyasida shakllanish ko‘lami bo‘yicha frazeologizmlarni birnecha guruhlariga ajratib o‘rgangan. Bizga ma‘lum “Iboralar tarkibida o‘simliklar nomlarini ifodalanishi” mavzusidagi frazeologizmlar ayrim jihatlariga ko‘ra guruhlanadi. Bu guruhlar quyidagilar:

A) Sabzavotlar, poliz ekinlari nomi qo‘llangan frazeologizmlar - “Otang kim – oshqovoq, onang kim – nosqovoq”, “Piyozning po‘stidek bo‘lib ketibdi”, “Piyoz po‘sti”, “qovun pishig‘i”, “Yetti qovun pishig‘i”, “Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi”, “Qovun tushirib, shag‘al to‘kmoq”, “Tub qo‘yib palak yoymoq”, “Bir qo‘ltiqqa ikki tarvuz sig‘mas”, “Qovun polizga qovun ko‘tarib bormoq” kabi .

B) Mevalar nomi qo‘llangan frazeologizmlar - “Ana-mana deguncha, kampir shoftoli yeguncha”, “Olma pish og‘zimga tush”, “Qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq”, “Boshida yong‘oq chaqmoq”, “Shoxida mayiz bo‘lmoq”, “Danagidan mag‘zi shirin”, “Ana xolos, pishdi gilos”, “Bir qop yong‘oqdek shaldir-shuldir” kabi.

V) Gullar nomi- “Qo‘li gul”, “O‘n gulidan bir guli ochilmagan”, “Uzulmagan gul”, “Onasi qizil gulning tagida tuqqan” kabi.

G) Daraxtlar nomi - “Daraxt bir joyda ko‘karadi”, “Daraxtning bo‘shini qurt yeydi”, “Siz aytgan tollar kesilib ketgan”, “Shoxida yursa bargida yurmoq”, “Shoxi sindi”, “Shoxida mayiz bo‘lmoq”, “Tomdan tarasha tushgandek” kabi.

D) Boshqoli ekinlar nomi - “Ko‘r tovuqqa hamma narsa bug‘doy”, “Osmondagi qushning, og‘zidagi donni olmoq”, “Arpasini xom o‘rmoq”, “Rangi somon”, “Rangi somon bo‘ldi”, “Terisiga somon tiqmoq” kabi.

Yuqoridagilarga kiritilgan frazeologizmlardan tashqari, amaliy nutqimizda ham uchraydigan frazeologizmlar ham mavjudki, ularda faqat o‘simliklarga xos bo‘lgan ayrim semalar aks etgan. Ular quyidagilar: “Barq urib”, “Ildiz otmoq”, “Ildiziga bolta urmoq”, “Sabza urmoq”, “Bir shingil”, va xokazolar.

## **I BOB. Inson tana a'zolarini bildiruvchi frazeologizmlarning komponent tahlili**

### **1-fasl. Frazeologizm va so'z birikmasi**

Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun so'zlar yordamidagina emas, balki bir necha so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan birikmalardan ham foydalanamiz.

Masalan, *Toshkentdagi istiqlool davrida qurilgan inshootlarni ko'rib og'zim ochilib qoldi*. Bu gapda *og'zim ochilib qoldi* birikmasi so'zlovchi tomonidan nutqqa tayyor holda olib kiritilgan.

**Og'zi ochilib qolmoq** birikmasi nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir so'z *hayron bo'lmoq* so'zi ifodalagan ma'noga teng keladi. Yoki *Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda, deydi xalqimiz*, jumlasida **deydi xalqimiz** birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zaro erkin bog'langan bo'lsa, undan oldingi so'zlar so'zlovchining nutqiga qadar xalqimiz tomonidan yaratilgan, tilimizda tayyor holda so'zlarning xuddi shunday tarkibini doimiy saqlagan holda mavjuddir.

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari **barqaror birikmalar** deyiladi. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma'no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi tarkibiy qismlari-ning barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Tasviriy ifodalar.
2. Iboralar (frazelogizmlar).
3. Maqol va ma'tallar.
4. Hikmatli so'zlar (aforizmlar)

Iboralardan nutqda unumli foydalanish jarayonida tafakkur, hayol, xotira va soʻz, bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunish imkoniyatini beradi.

Frazeologiya atamasi orqali, bir tomondan, soʻz birikmalarini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi, boshqa tomondan esa, maʼlum tilning barcha barqaror birikmalari majmui tushuniladi. Tilning lugʻat tarkibini nafaqat boshqa soʻzlar, balki barqaror soʻz birikmalari ham tashkil qiladi. Barqaror soʻz birikmalari boshqa soʻzlar bilan ibora tushunchasi vositasi vazifasida xizmat qiladi. Barqaror soʻz birikmalari oʻzida tobe munosabatda birikkan soʻzlarni namoyon etadi.

Erkin birikkan soʻz birikmasi maʼlum fikrlarni ifodalash uchun har bir maʼlum nutq vaziyatlarining vazifasiga asosan tildagi muloqotlar davridagi mazkur tilning grammatik qoidalariga asoslanib yaratiladi. Erkin birikmaning umumiy maʼnosi oʻsha birikmani tashkil etgan har bir soʻz mazmunidan anglashiladi. Erkin birikma tarkibiga hokim soʻz va gapning mustaqil aʼzosi vazifasini bajaradigan tobe soʻz kiritilgan. Shunday qilib, erkin birikma oʻzida sintaktik bogʻlanishni namoyon etadi. Birikmadagi har bir bogʻlanishlarning tobelik munosabati birikmaning semantik mustaqilligini anglatadi va ular birlashgan holda turgʻun birikmalarni hosil qiladi. Barqaror soʻz birikmasi birikma tarkibidagi biror soʻzni birikma maʼnosini buzmasdan oʻzgartirish mumkin boʻlmagan qatʼiy muayyan soʻzlardan tashkil topgan boʻladi. Barqaror birikma shaklan va muayyan maʼno

jihatidan boshqa birikmalardan ajralib turadi, u an'anaviy qo'llanishi va mazmun to'laligining yuqori yoki quyi ekanligidan aniqlab olinadi. Turg'un so'z birikmasi nutq paytidagi so'zlashuv jarayonida yaratilmaydi, lekin nutqda allaqachon qotib qolgan va ma'lum mazmunda ishlatilayotgan bo'ladi. Barqaror so'z birikmasining mazmunan to'liq tarkibi gapning mustaqil bo'lagini anglatmaydi, lekin barqaror birikma bir butunlikda gapning bir bo'lagini barpo etadi, maqol bundan mustasno, chunki uning tuzilishi butun boshli gap bilan teng bo'lishi mumkin.

Barqaror birikmali so'zlar tilning frazeologik birikmalari deb ham yuritiladi. Frazeologik birikmalar ikki yoki undan ko'p so'zlardan tashkil topadi, u bir tushunchani ifodalashi va bir so'zga ekvivalent bo'lishi mumkin, odatda u bir so'zli sinonimik ekvivalentga ega bo'ladi, sintaktik jihatdan gapning bir bo'lagini barpo etadi. Tuzilishiga ko'ra frazeologik birikmalar ulkan xilma-xillikni o'zida namoyon etadi. Frazeologik birikmalarning tarkibi o'rtasidagi semantik bog'lanishlar turlicha bo'lishi mumkin: bunday birliklar tarkibiga kiruvchi so'z o'zining ma'no mustaqilligini yuqori yoki past darajada saqlab qoladi.

Erkin birikma – bu barqaror birikma, ya'ni birikma tarkibidagi so'zlarning har birida tobelik munosabati mavjud, bir oz ma'no mustaqilligi saqlangan birikma. Erkin birikmani tashkil etuvchi so'zlar ma'nosi frazeologik bog'lanishlarda tobelikni bildiradi, bundan tashqari har biri mazkur so'zlar bilan faqat birikmalarda ko'rsatiladi. Butun birikma ma'nosi uni tashkil etuvchi so'zlar ma'nosidan anglashiladi.

Erkin birikmalar talaygina. Ular yaqqol uyg'unlashgan bo'ladi. Buning ta'sirchan xususiyati butun birikma yaratgan ifodaga asoslangan bo'ladi.

Turg'un birikma – bu barqaror so'z birikmasi, ya'ni butun birikma uyg'unlashgan ma'noda va birikma ma'nosi ayrim birikma tarkibidagi so'zlar ma'nosidan yaratiladi. Turg'un birikmaning umumiy ma'nosi asosida oson anglashiladigan so'z yotadi. Uning tarkibidagi ayrim so'zlar - mazmunan tobe va

birikma tarkibidagi soʻzlarning har-birining maʼnosi umumiy ravishda birlikka boʻysundiriladi.

Turgʻun birikmalar oʻz nomidan koʻrinib turganidek oʻzaro bogʻlanishning eng yuqori bosqichini namoyon etadi. Tarkibiy qismlarning maʼnosi butun ifodaning taʼsirchan xususiyatlari (xossalari) va ifodalilik maʼnosini qamrab oladi. Turgʻun birikmalar har bir tilda aniq shakllangan boʻladi va boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida aynan soʻzma-soʻz tarjimini bermaydi.

Turgʻun birikmaning oʻziga xos misoli, taʼsirchan soʻzlashuv nutqiga xos boʻlgan ifoda ekanligidir.

Frazeologik birikmalarning asosiy qismini ikki guruhga boʻladi: erkin birikmalar va frazeologik chatishmalar. Turgʻun birikmalar ajratilgan guruh qismiga kiritilmagan, lekin ular erkin birikmalar tarkibiga kirgan, chunki biz avval aytib oʻtganimizdek frazeologik birikmalarga qiziqish va istagini soʻndirishning mezoni turli soʻzlashuvchilarning bilimi va topqirligiga bogʻliq holda turlichadir. Erkin birikmaning majoziy maʼnosi butun birikma maʼnosi tomonidan yaratiladi, maʼno koʻchishi ekstra-lingvistik omillarga tobe boʻladi, masalan aholi va uning madaniyati tarixiga doir birikmalardir. Nutqda omonimlik xususiyatga ega erkin birikmalar mavjud boʻlishi mumkin, lekin ular maʼno jihatdan turlicha hisoblanishadi

Ikki va undan ortiq soʻzlarning oʻzaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud boʻlgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Maʼno butunligi.

3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalardan o`rinli foydalanish nutq go`zalligini ta`minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko`rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o`rganuvchi tilshunoslik bo`limi paremiologiya<sup>9</sup>, barqaror birikmalar lug`atini tuzish muammolarini o`rganuvchi bo`lim esa paremiografiya<sup>10</sup> sanaladi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarning barqarorligi belgisiga ko`ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma`no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko`ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo`linadi:

1. Frazelogizmlar
2. Maqol va matallar
3. Aforizmlar

Frazelogizmlar uch turli bo`ladi: erkin birikmalar, turg`un birikmalar, frazelogik chatishmalar.

Tarkibidagi bir so`z to`g`ri, ikkinchi so`z esa ko`chma ma`noda bo`lib birikkan iboralar *erkin birikmalar* deyiladi: *hordiq* (to`g`ri ma`noda) *chiqarmoq* (ko`chma ma`noda), *holdan* (to`g`ri ma`noda) *toymoq* (ko`chma ma`noda), *so`zida* (to`g`ri ma`noda) *turmoq* (ko`chma ma`noda) kabi.

Tarkibidagi so`zlarning ma`nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko`chma ma`no beruvchi iboralar turg`un birikmalar deb ataladi: *ko`kka ko`tarmoq* (maqtamoq), *eti suyakka yopishgan* (ozg`in), *yuragi orqasiga tortmoq* (qo`rqmoq)kabi.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so`zlar ma`no jihatdan uyg`unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko`pincha mazmunan bir leksemaga to`g`ri keladi va ko`chma ma`noda ishlatiladi.

---

<sup>9</sup>Paremiologiya – (lot.) *parema* – barqaror, *logos* – ta`limot

<sup>10</sup>Paremiografiya – (lot.) *parema* – barqaror, *grapho* - yozmoq

Masalan, *qulog`i ding bo`lmoq – hushyor bo`lmoq, qovog`i osilmoq – xafa bo`lmoq, og`zining tanobi qochdi – quvonmoq* kabi.

Ma`no yaxlitligiga ega bo`lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so`zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko`chma ma`nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo`lagi vazifasida keladi. Frazeologizmlarni tashkil etuvchi so`zlar faqat frazeologizmlarning ichki qismlari sanaladi. Gapning boshqa bo`laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan, *Rais daladagi hosilni ko`rib boshi osmonga yetdi*. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Tarkibidagi so`zlarning ma`nolari bilan ibora ifoda etgan ma`no o`rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi: *sichqonning inini ijaraga olmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, temirni qizig`ida bosmoq, oyog`ini tirab olmoq* kabi.

Frazeologik qo`shilma yoki butunliklar so`zlarni o`zaro biriktirish yo`li bilan yasalgan yaxlit iboralar bo`lib, ularning tarkibidagi ba`zi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarning komponentlarini almashtirish mumkin emas. *Oyog`ini tirab turmoq* yoki *oyog`ini tirab turib olmoq* bir ma`noni ifodalashi sababli frazeologik sinonimlar hisoblanadi, biroq ularning komponentlarini almashtirish mumkin emas. Shuningdek, *bag`ri tosh* va *mehri tosh* iboralari frazeologik sinonimlar bo`lib, ularga o`z ma`nosi bilan qarama-qarshi bo`lgan *ko`ngli bo`sh* va *mehri bo`sh* iboralari frazeologik antonimlardir. Ba`zan frazeologizmlar shaklan to`g`ri kelib, turli ma`nolarni ifodalaydi. Bunday hodisa frazeologik omonimiya deyiladi: *javobini bermoq* – 1) biror savolga javob qaytarmoq; 2) biror xizmatchini ishdan bo`shatmoq kabi.

Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin soʻz birikmalari asosida hosil boʻladi. Biroq ular koʻchma maʼno kasb etib, komponentlari oʻzaro birikib yaxlit holda qoʻllanilishi natijasida singib ketadi. Masalan, *joyiga keltirmoq*, *oʻrniga qoʻymoq* iboralari erkin birikmalarni eslatadi. Lekin ular koʻchma maʼnoda qoʻllanib, “ishni (vazifani) yaxshi bajarmoq”, “biror ishni tartibli bajarmoq” maʼnolariga ega boʻlgan. Frazeologizmlarning koʻchma maʼnolari nutq situatsiyasi yoki kontekst yordamida oydinlashadi. Frazeologizmlar turli tillarda oʻsha xalqning baʼzi urf-odatlarini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini soʻzma-soʻz agʻdarmay, toʻgʻri keluvchi iboralardan foydalaniladi.

Frazeologizmlar grammatik tuzilishi bilan farq qiladi. Ularning tarkibida ot, sifat, feʼl va boshqa soʻz turkumlari ishtirok etadi hamda komponentlarning sintaktik birikuvi ham turlicha boʻladi: *olam guliston*, *taʼbi xira*, *kayfi buzuv*, *tepsa-tebranmas*, *qorasi oʻchmoq*, *yuragi qora*, *oʻziga kelmoq*, *oʻrtaga tashlamoq*, *katta gapirmoq* kabilar.

Tarkibida taqlid soʻzlar boʻlgan frazeologizmlar alohida koʻchma maʼnolari bilan ajralib turadi: *yuragi duk-duk qilmoq*, *piq-piq qilmoq*, *taq-taq etmoq* kabi.

Frazeologizmlar semantik tomondan umumlashgan koʻchma maʼno ifodalasa, grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarning oʻzaro birikuvi va gapda ham shu tartibni saqlab qolishi bilan izohlanadi.

Frazeologizmlar ikki yoqlama lisoniy birlik boʻlib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmlarning shakliy tomonini soʻzlar (leksemalar emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik maʼnodir. Frazeologik maʼno oʻta murakkab tabiatli boʻlib, leksemalarda boʻlgani kabi ularning ayrimlari denotativ tabiatli boʻlsa, boshqalari grammatik maʼnoga ega, xolos. Masalan, mustaqil soʻz turkumlariga kiruvchi frazeologizmlar: (burgaga achchiq qilib, koʻrpaga oʻt qoʻymoq, tarvuzi qoʻltigʻidan tushmoq, koʻngli boʻsh,

hash-pash deguncha) denotativ ma'noga ega bo'lsa, turgan gap, shunga qaramay kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi.

Odatda, frazeologizmlarning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida [yoqasini ushlamoq] frazeologizmi bilan [hayron bo'lmoq] leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq» bo'lsa, [hayron bo'lmoq] leksemasi «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq» sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida «o'ta darajada» va «so'zlashuv uslubiga xos», «bo'yoqdor» semalariga egaligi bilan «hayron bo'lmoq» leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmlarda, ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Masalan, [hayron bo'lmoq] leksemasi umumuslubiy va bo'yoqsizdir. Shuning o'ziyoq uning barcha uslublarda qo'llanish imkoniga egaligini va uni osongina turli «bo'yoqlar» bilan ishlatish mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, frazeologizm va leksemalarni bir narsa yoki hodisani atashsada, (atash sememalari bir xil bo'lsa-da), ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya'ni ifoda semalari turlichadir).

Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topadi. Biroq ularning ma'nosi tashkil etuvchi ma'nolarining oddiy yig'indisi emas. Masalan, [qo'yniga qo'l solmoq] frazeologizmining ma'nosi [qo'yin], [qo'l], [solmoq] leksemalari ma'nolari sintezi yoki qo'shiluvchi emas. Frazeologizmlar ma'nosi tashkil etuvchi so'zlar to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo'ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish xarakatiga o'xshaydi. Natijada, qo'yniga qo'l solmoq erkin birikmasi o'zidan anglashilgan mazmunga o'xshash bo'lgan boshqa bir

mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmga aylanadi. Yoki kishi qo'ltiq lab ketayotgan tarvuzini tushirib yuborsa, qanday ahvolga tushadi? Biror narsadan ruhiy tushkunlikka tushgan odamning holati shunga monandir va natijada erkin birikma frazeologizm mohiyatiga ega bo'ladi.

Bu esa frazeologik ma'noning mantiqiyligidan dalolat beradi.

Frazeologizm tartibidagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda, boshqalarining o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, aqlini yemoq, ko'zini bo'yamoq, ko'zi-ko'ziga tushdi, og'zi qulog'ida frazeologizmlarida aql, ko'z, og'iz so'zlari o'z ma'nosida yemoq, bo'yamoq, tushmoq, qulog'ida so'zlari ko'chma ma'nodadir.

Ba'zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilmalar frazeologizmga aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin. Shuning uchun barmog'ini tishlab qolmoq qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. Tishni-tishga qo'ymoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, labiga uchuq toshmoq iboralar ham shular jumlasidandir.

Ayrim frazeologizmlar turli diniy aqidalar, tushunchalar, rivoyatlar asosida ham shakllanadi: 1.Uning eriga mening ko'zim tekkan emish (I.Rahim.) 2.Hammani qo'yib, sizning soldat o'g'lingizga tegaman deb ko'zim uchib turibdimi? (M.Muhamedov). 3. «Jabr diyda»ning ham, guvohlarining ham dumi xurjunda gaplari shunday savollar berilishini talab etardi. (M. Ismoilov)

Frazeologizmlar, asosan, bir ma'nolidir. Ammo polisemantiklik frazeologizmlarda ham uchrab turadi. Masalan, aqli yetadi frazeologizmi «idrok qilmoq», «ishonch hosil qilmoq» ma'nosiga bo'yniga qo'ymoq iborasi 3 ta - «aybni birovga to'nkamoq» «isbotlab e'tirof qildirmoq», «biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq» ma'nolariga, qo'lga olmoq iborasi esa 4 ta - «o'z ixtiyoriga o'tkazmoq», «qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq», «qamash maqsadida tutmoq», «biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq» ma'nolariga ega.

Frazeologik polisemiyada barcha maʼnolar koʻchma boʻlganligi bois, ularni bosh va hosila maʼnolarga ajratish qiyin.

Frazeologizmlarda semantik munosabatlar. Leksikada boʻlgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabatlar amal qiladi. Frazeologik sinonimiya. Maʼnodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham amal qiladi. Frazeologizmlarning maʼnodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga koʻra farqlanadi: yaxshi koʻrmoq-koʻngil bermoq, yer bilan yakson qilmoq-kulini koʻkka sovurmoq, ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrugʻigacha va h. Maʼnodosh frazeologizmlarning atash semalari bir xil boʻladi. Masalan, ipidan ignasiga-miridan sirigacha, qilidan quyrugʻigacha kabi iboralarida «butun tafsilotlari bilan» atash semasi umumiydir. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va boʻyoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

Sinonim frazeologizmlarni frazeologik variantlardan farqlash lozim. Sinonim iboralarida ayni bir soʻz bir xil boʻlishi mumkin. Lekin qolgan soʻzlar sinonim leksemalarning koʻrinishlari boʻlmasligi lozim. Jonini hovuchlab va yuragini hovuchlab iboralarida bir xil soʻz mavjud. Ammo jon va yurak soʻzlari sinonim leksemalar koʻrinishi emas. Koʻngliga tugmoq va yuragiga tugmoq iborolari frazeologik variantlardir.

Frazeologik antonimiya. Zid maʼnoli antonimlar bir-biriga teskari tushunchalarni ifodalaydi. Misollar: koʻngli joyiga tushdi-yuragiga gʻulgʻula tushdi, qoni qaynadi-ogʻzi qulogʻiga yetdi.

Frazeologik omonimiya. Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham boʻlishi mumkin. Misollar: 1) soʻz bermoq, 2) soʻz bermoq, 1) boshga koʻtarmoq, 2) boshga koʻtarmoq, 1) qoʻlga koʻtarmoq, 2) qoʻlga koʻtarmoq.

## 2-fasl. O‘zbek tilida inson tana a‘zolari bilan bog‘liq frazologizmlar

O‘zbek tili iboralarga juda boy til hisoblanadi. Iboralarning ko‘pligi nafaqat tilimizning boyligini, balki xalqimizning turmush tarzi, kundalik hayoti, nutq madaniyatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ham ko‘rsatib turadi.

**Ibora** — tilimizning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biridir. Ular ikki va undan ortiq so‘zning ko‘chgan ma’nolari asosida tarkib topgan lug‘aviy birlik bo‘lib xuddi so‘z kabi lug‘aviy ma‘noni anglatadi. Masalan, **xamirdan qil sug‘urganday** iborasi, “osonlik bilan”, “qiyinchiliksiz ” ma‘nosini, **ko‘ngil bermoq** iborasi “sevmok” ma‘nosini, **qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan** iborasi “yuvosh” ma‘nosini bildiradi.<sup>11</sup>

Xuddi so‘z kabi yaxlit bir ma‘noni anglatadigan bunday til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.

**Ibora** — frazema frazeologik birlik sifatida tilshunoslikning frazeologiya bo‘limida o‘rganiladi. Ibora tuzilishiga ko‘ra ya‘ni birdan ortiq so‘zdan tashkil topishi bilan so‘z birikmasi yoki gapga o‘xshab ketsa ham, nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi va lug‘aviy birlik sifatida ko‘p jihatdan so‘zlarga yaqin turadi. So‘zlarga xos bo‘lgan juda ko‘p xususiyatlar iboralarga ham xosdir.

Iboralar so‘z birikmasi yoki gaplar kabi har gal nutqning o‘zidagina yuzaga kelmaydi, balki ular, xuddi so‘zlar kabi tilda tayyor holda bo‘ladi. Shuning uchun iboralarni turg‘un birikmalar hisoblaymiz. Chunki ibora tarkibidagi so‘zlarni ajratib bo‘lmaydi. Iboralar gapda bitta so‘roqqa javob bo‘lib, bitta bo‘lak vazifasida keladi. Demak, iboralar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi

---

<sup>11</sup>M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev, D. Muhamedova. O‘zbek tili praktikumi. Toshkent. “Iqtisod-Moliya”, 2006 yil. 76-bet.

hisoblanadi: **aravani quruq olib qochmoq, kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq, tomdan tarasha tushganday, kapalagi uchibketdi** kabilar tilda tayyor holdagi birliklardir. Iboralar ham xuddi so‘zlar kabi, shakl va ma’no butunligiga ega. So‘zning shakliy tomonini tovushlar(harflar) hosil etsa, iboralarning shakliy tomonini so‘zlar hosil etadi: **yoqlamoq – yon bosmoq, rahmdil – ko‘ngli bo‘sh** kabi.

Iboralar 2 xil shaklda bo‘ladi.

1. So‘z birikmasi shaklida: **ichi qora, ko‘ngli to‘q, oq ko‘ngil** kabi.
2. Gap shaklida: **Tirnoq ostidan kir qidiradi, kapalagi uchib ketdi, ilonning yog‘ini yalagan.**

Lekin so‘z birikmasi bilan so‘z birikmasi shaklidagi iboralarning o‘zaro farqi bo‘lib, so‘z birikmasining tarkibidagi so‘zlar o‘z leksik ma’no mustaqilligini saqlagan bo‘ladi. Iboraning tarkibidagi so‘zlar esa o‘z leksik ma’nosi bilan qatnashmaydi, ma’nosini yo‘qotgan bo‘ladi. Ba’zan ibora so‘z birikmasi bilan shaklan teng kelib qolishi mumkin. Bunday holatda ibora turg‘un birikma sifatida erkin birikma bilan omonimik holatda bo‘ladi. Buni biz quyidagi misollarni keltirishimiz orqali qiyoslashimiz mumkin. Masalan: 1. *Nima uchun bu haqiqatdan ko‘z yumasiz?* (Sharof Rashidov) 2. *Ahmadjon atrofda birdan chang, to‘zon bo‘lganligi sababli ko‘zini yumdi.*

Birinchi gapda “ko‘z yummoq” ibora bo‘lib, “voz kechmoq ma’nosida ”, ikkinchi gapda o‘z ma’nosida kelgan.

Ba’zi iboralar tuzilishi jihatdan gap shaklida ham bo‘ladi. Lekin ular nutqda gapning bir bo‘lagi vazifasida keladi va hammasi bitta so‘roqqa javob bo‘lib, gap tarkibidagi so‘zlar kabi alohida-alohida so‘roqqa javob bo‘lmaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki iboralar lug‘aviy birlik bo‘lgani uchun xuddi so‘zlar kabi gapda biror bo‘lak vazifasida keladi.

1. *Aravani quruq olib qoshish yaxshi ish emas.*

2. *Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan bunday hodisalar... hali ham onda-sonda ro'y berib turadi.*

3. *Azizaning bu xabardan boshi osmonga yetdi.*

4. *Odamlar qo'ltig'idan tarvuzlari tushib qishloqqa qaytishdi.*

Yuqorida keltirilgan gaplarda iboralar birinchi gapda ega, ikkinchi gapda aniqlovchi, uchinchi gapda kesim, to'rtinchi gapda esa hol vazifasida kelgan.

Iboralar o'ziga xos ma'no tomoniga ham ega. Iboralardan anglashiladigan ma'no uning tarkibida qatnashgan so'zlarning ma'nolarining oddiy yig'indisi bo'lmay, umumlashma, obrazli, ko'chma ma'no sifatida bo'ladi.

Masalan: *U bu xabarni eshitib kapalagi uchib ketdi.*

Bu gapdagi kapalak, uchib ketdi so'zlari anglatadigan ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmay, balki biron narsadan qattiq qo'rqishni ifodalashga asoslangan obrazli ko'chma ma'nodir.

### 3-fasl. Inson tana a'zolari bilan bog'liq iboralarining uslubiy xususiyatlari

Iboralarining uslubiy imkoniyatlari nihoyatda katta . Xuddi so'zlar kabi iboralar ham uslubiy qo'llanishi jihatdan neytral yoki uslublardan biriga tegishli bo'lishi mumkin. Bugungi nutqimizda **so'zlashuv va badiiy uslubda** iboralardan ko'proq foydalanishga e'tibor qaratilgan, chunki xalqqa tegishli bo'lgan iboralarining qo'llanishi mana shu uslublardan ko'p kuzatiladi. Iboralardan o'z o'rnida foydalanish nutqning ifodaliligini, obrazlilikini oshiradi.

So'zlashuv uslubida takror va qaytariqlarning oldini olish, fikrning ta'sirchanligini oshirish maqsadida so'z o'rnida quyidagi iboralardan unumli foydalanadi: **ko'z bo'yamoq, juftakni rostlamoq, qulog'iga lag'mon osmoq, dabdalangni chiqaraman, og'zingni ocha ko'rma, damingni chiqarma, uchib borib, uchib kel, boshimdan ordona qolsin** va boshqalar.

Badiiy uslubda ham iboralarining qo'llanishi o'ziga xos bo'lib, ular badiiy asar tili ta'sirchanligini, shuningdek, badiiy asar qahramonining nutqi ifodaliligini oshirishga yordam beradi. Bunday iboralarga quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: **shaytonga dars bermoq, barq urmoq, oyni etak bilan yopib bo'lmas** kabilar.

Ko'p ma'nolilik hodisasi so'zlarda juda taraqqiy etgan bo'lib, bu hodisa iboralarda ham uchraydi. So'zlarning juda ko'p qismi ko'p ma'nolidir, iboralarda esa unday emas. Iboralarining asosiy qismi bir ma'nolidir.

Iboralar ko'p ma'noligida ham xuddi so'zlarning ko'p ma'noligida bo'lgani kabi bosh va yasama ma'no farq qiladi. So'zlarning ko'p ma'noligida bosh ma'no to'g'ri ma'noga, yasama ma'no esa ko'chma ma'noga teng. Iboralarining ko'p ma'noligi bundan farq qilib, bosh ma'no ham ko'chma ma'noda bo'ladi. Chunki har qanday frazeologik ma'no

ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.

Ko‘p ma’noli iboralarda uning ma’nolari asosan biri ikkinchisidan o‘tib chiqqan bo‘ladi. Masalan: **Tili chiqdi** iborasi.<sup>6</sup>

1. kimning — go‘dakning. Nutqqa ega bo‘lmoq..

*Yodgorning ham tili chiqib qoldi: “dada-dada”ni og‘zidan qo‘ymaydi. (G‘. G‘ulom, “Yodgor”).*

2. kimning — nutqqa ega kishining .Indamay yurgan kishi gapiradigan bo‘lib qoldi.

*“Ko‘zing qurmasin, — kampir jilmaydi, — endi tiling chiqib qoldi. Boyadan beri qovog‘ingdan qor yog‘ayotgan edi”.*

3. kimning — nutqqa ega kishining. Aytishadigan bo‘lmoq. O‘xshashi: gap qaytarmoq.

*“... Ko‘rib turibsiz, kasalmas. Ana, pulni olib, uyga dingillab kirib ketdi”. — “Oyim aytganday, borgan sari tiling chiqyapti”. (S. Zunnunova, Latta.)*

Ba’zi iboralarning ma’nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o‘tamaydi, har biri o‘zicha shakllangan bo‘ladi, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug‘iladi. Ma salan: **To‘g‘ri kelmoq** iborasi.<sup>7</sup>

1. Muvofiq bo‘lmoq, mos bo‘lmoq, yaramoq.

*Zamira Muhammadjonning idealiga hamma jihatdan to‘g‘ri kelardi. (P. Qodirov, Uch ildiz.)*

2. Bir vaqtda bo‘lmoq.

*“Yana bir haftadan keyin Salim akam gap berarmishlar ”.- “Bahona topilib, boraverar ekanman. Ishqilib, Abdulla pochchamning ziyofatiga to‘g‘ri kelmasin!”.* (Oybek, Qutlug‘ qon.)

3. Taqsimlaganda tegmoq.

---

<sup>6</sup>Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.- Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1978. – B 230-231

<sup>7</sup>O‘sha kitob. B 239-240.

*Agar boshqa zvenolarga ham shunchadan yer to'g'ri kelsa, eplab bo'lmaydi, Komiljon.* (R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi.)

4. Yo'liqmoq, uchramoq: O'xshashi: duch kelmoq.

*Otasi, qandayin nozanin juvon to'g'ri kelsa ham, ko'z qirini tashlamasdi.* (Oydin, Kelin o'g'il tug'ibdi.)

5. Qulay bo'lmoq. Sinonimi: o'ng kelmoq.

*Demak, jazo xavfi ketsa-yu, sharoit to'g'ri kelib qolsa, yana qo'rqituv yo'liga o'tishi mumkin.* (P. Qodirov, Uch ildiz.)

6. Lozim bo'lmoq, zarur bo'lmoq (shaxssiz).

*Doim bir-birovingga xo'mrayib qarashib yoki til uchida gaplashib yurishga to'g'ri keladi.* (I.Rahim, Ixlos.)

Xuddi so'zlarda bo'lgani kabi iboralarda ham omonimiya, sinonimiya va antonimiya hodisalari bor.

Bir xil so'zlardan tuzilgan, tamoman boshqa-boshqa ma'no bildirgan iboralar **omonim iboralar (frazologik omonimiya)** hisoblanadi.

Frazologik omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi.

Masalan: **Joni chiqdi-1** va **joni chiqdi-2** kabi. 1- jahli chiqdi, 2 – vafot etdi.

**Boshiga ko'tarmoq** iborasi. 1 – shovqin qilmoq; 2 – hurmat qilmoq ma'nolari bilan omonim iboralar hisoblanadi.

Bu yerda omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi.

Omonimik munosabatdagi iboralarning leksik tarkibi ikki xil bo'ladi.

1. Har ikki ibora tarkibidagi bir komponent omonim bo'ladi, boshqa komponent esa ayni bir so'zning o'zi bo'ladi. Masalan: **O'ng kelmoq** va **o'ng kelmoq** iboralari tarkibidagi fe'l komponentlari ayni bir so'z bilan, ism komponentlari esa omonim so'zlar bilan ifodalangan.

1.1 – ters sifatining antonimi.

1.2 – iborada esa tush otining antonimi.

2. Har ikki ibora tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu soʻzlarning oʻzi boʻladi.

Bunda ikki holatni kuzatishimiz mumkin.

2.1 Iboralar tarkibidagi soʻzlar har xil leksik maʼnosi bilan qatnashadi.

Masalan: **dam bermoq-1** va **dam bermoq-2** iboralari tarkibida feʼl ayni bir leksik maʼnoni, ot soʻz turkumi esa boshqa- boshqa leksik maʼno bilan qatnashgan.(dam 1 – havo, yel; dam 2 – istirohat,hordiq.)

2.2 Iborada qatnashgan soʻzlar ayni bir leksik maʼno bilan qatnashadi. Lekin maʼnoviy jihatdan ular omonim boʻladi.

Masalan: **ichag(i) uzildi** va **ichag(i) uzuldi** iboralari soʻz komponentlari ayni bir leksik maʼno bilan qatnashgan, ammo bu iboralar maʼnosida boshqa-boshqa maʼnolar yotadi.

1. Qattiq kulgandan ichaklar silkina-silkina uzulib ketgudek boʻlishi.
2. Uzoq vaqt ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib ketishi.
3. Iqtisod bilan bogʻliq boʻlib, haqqatdan ham ehtiyoj uchun toʻplangan jamgʻarmalarning tugab yangisiga yetishishdagi qiyinchilik davri, oraliq.

Shakli har xil iboralarning maʼno jihatdan yaqin boʻlishis**sinonim iboralar (frazologik sinonimlar)** deyiladi. Masalan, **yaxshi koʻrmoq – koʻngil bermoq; dimogʻi shishdi – burni koʻtarildi;**

Frazeologik sinonimlar bir-birlaridan ma'no qirralariga ko'ra farq qiladi. Masalan: **yer bilan yakson bo'lmoq – yer bilan yakson qilmoq** iborasi **kulini ko'kka sovurmoq – kuli ko'kka sovurildi** iborasi bilan sinonim, ayni bir ma'noni anglatadi (butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq). Bu sinonimlar boshqa belgi-xususiyatlaridan qat'iy nazar ma'no qirrasida farq qiladi. Ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og'iz; bir shingil; bir chimdim* sinonim iboralar asosida har xil obrazlar yotadi: so'zlash organi; bir bosh uzumning qismi; chimdib olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish lozim. Buning uchun iboralarning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, "butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha" ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha* iboralari o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z komponent yo'q.

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa- boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, *jonini hovuchlab vayuragini hovuchlab* – sinonim iboralar: birinchi leksik komponenti ayni bir so'z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponenti esa boshqa- boshqa so'z bilan ifodalangan va bular o'zaro sinonim emas.

Sinonimik munosabatda qatnashuvchi (bir sinonimiya uyasiga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko'pchilik uyalar ikki sinonimli; uch sinonimli uyalar ham anchagina; to'rt iborani birlashtiruvchi uya ham bor. Masalan, "ta'zirini yemoq" iborasi qatnashadigan uya ikki sinonimdan, "bir yostiqqa bosh

qo‘ymoq” iborasi qatnashadigan uya uch sinonimdan, “esiga tushmoq” iborasi qatnashadigan uya to‘rt sinonimdan iborat.

Agar bir so‘z bilan bir ibora sinonim bo‘lsa leksik – frazeologik sinonim deyiladi.

**sho‘x – yerga ursang ko‘kka sapchiydi;**

**chidamoq – bardosh bermoq;**

Sinonim iboralarni o‘quvchilarga o‘rgatishning ahamiyatli tomoni shundaki, ular iboralarning ma’noviy qirralarini farqlab, nutq sharoitiga mos ravishda qo‘llay oladi.

Masalan, **dimog‘i chog‘ bo‘ldi** iborasining sinonimik qatori *bahri ochildi, ko‘ngli ochildi, chehrasi ochildi, kayfi chog‘ bo‘ldi* kabi iboralar bo‘lib, ular ma’no qirralariga ko‘ra bir-biridan qisman farq qiladi. Dimog‘i chog‘ bo‘ldi, kayfi chog‘ bo‘ldi iboralari o‘ta hursandlik holati bildirsa, ko‘ngli ochildi, chehrasi ochildi iboralarida esa hursand bo‘lish holati yuqoridagilarga nisbatan ma’nosi kuchsizroqdir. Bunday iboralarni o‘quvchilarni nutq sharoitiga mos ravishda qo‘llay olishga o‘rgatish biz o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Qarama-qarshi ma’no ifodalovchi iboralar **antonim iboralar (frazeologik antonim)** hisoblanadi. Masalan, *oq ko‘ngil – ichi qora; ko‘ngli joyiga tushdi – yuragiga g‘ulg‘ula tushdi;*

Antonimiya til birliklari orasida semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo‘lib, iboralarda ham so‘zlardagi darajada uchraydi. Antonimiya hodisasini belgilash, birinchidan, iboralarning lug‘aviy ma’nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, ko‘p ma’nolik hodisasida bir iboraning ma’nolarini o‘zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Bir soʻz bir ibora bilan antonim boʻlsa, bu leksik-frazeologik antonim deyiladi.

**hafa – ogʻzi qulogʻida;**

**eski – ohori toʻkilmagan;**

Iboralar orasida tarkibidagi hamma soʻzlar boshqa- boshqa soʻzlardan tashkil topgan boʻlsa antonimlik hodisasini belgilash oson boʻladi. Masalan, **savol bermoq – javob qaytarmoq**. Lekin nutqimizda birinchi komponenti ayni bir soʻzning oʻzi, qolgan komponenti antonim boʻlgan iboralar ham bor.

Yuqoridagi nazariy maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, bugungi oʻquvchi-talabalarning, umuman, oʻzbek tilini oʻrganayotgan yoshlarning ogʻzaki nutqini oʻstirishda, nutq madaniyatlarini egallashlarida iboralarning ahamiyati katta. Iboralardan oʻz oʻrnida foydalanish nutqning ifodaliligini va jozibaliligini oshiradi.

## II BOB. Inson tana a'zolarini nomlovchi frazeologizmlar

### 1-fasl. Frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyati

Frazeologiya - bu nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi lisoniy vositadir. Frazeologiya *frazos* va *logos* so'zlaridan olingan bo'lib, "iboralar haqidagi bilim" ma'nolarini anglatadi. Insonlar nutqi qanchalik jozibali bo'lsa, shundagina bu nutq kishiga tez ta'sir ko'rsatadi. Bunda frazeologizmlarning o'rnini benihoya. Iboralar umumiy nom bo'lib, u o'z ichiga turg'un birikma qolipidagi atamalarni, parafrazalarni va frazeologizmlarni oladi. Bu birliklar o'z ichida ifoda semasiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi.

Birikma atamalar, asosan, terminologik xarakterda bo'ladi va u bir tushuncha beradi. Unda hokim bo'lak ifodalayotgan tushunchani tobe bo'lak nimaga xosligini belgilaydi.

Masalan: *melodiy yil*, *mucha yil* kabi birikmalar ma'nosi yil so'zida ifoda topgan.

Birikma atamalar, asosan, ot turkumida bo'ladi. Bunday birikma atamalar esa terminlardan iborat. Masalan: *aylanma harakat*, *yetti og'ayni*, *somon yo'li*, *agrar masala*, *demokratik hokimiyat*, *vaziri akbarkabi* turli sohaga oid terminlardir. Bundan tashqari *ilmiy hodim*, *tashviqot nuqtasi*, *ichki ishlar* kabi terminologik bo'lmagan birikma atamalar ham o'zbek tilida ko'plab uchraydi.

Yuqorida birikma atamalarni ot turkumiga oidligini ko'rib o'tdik. Biroq so'z turkumi jihatdan ularni chegaralangan deb bo'lmaydi. Chunki ular sifat turkumida ham uchrashi mumkin. Masalan: *arzon-garov*, *avzoyi buzuvchi*, *amrimahol* kabi. Bunday birikmalar hokim qismi sifat turkumiga mansub. Bundan tashqari birikma atamalar ravish turkumida ham kuzatiladi. Masalan: *aks holda* kabi.

Korxona, muassasa, gazetalarga berilgan nomlar ham birikma atama hisoblanadi. Chunki birikma atamalar bir necha so'zdan iborat bo'lsa-da, ular mohiyatan bir so'z hisoblanadi.

Parafrazalar ham frazeologiyaning tarkibiy bir qismi bo'lib, pragmatic semasi jihatdan frazeologizmlarga o'xshaydi. lekin parafrazalarning ma'lum bo'lagi yoki bo'laklari ko'chma ma'noda bo'lib, ularning ma'nosi sintezidan tarkib topgan bir tushunchani bildiruvchi lug'aviy birliklardir. Parafrazalarda semantik qayta bo'linish kuzatilmaydi. Ya'ni buni quyidagicha tushuntirish mumkin:

1. Parafrazalar har doim birikma holida bo'ladi: *cho'lquvar kabi*.
2. Parafrazalar tarkibida nechta so'z bo'lishidan qat'iy nazar, bir tushuncha ifodalaydi.
3. Parafrazalar bir ifoda semasiga ega bo'lsa ham, unda pragmatik sema bo'lishi shart. Masalan: *qanotli do'stlar* parafrazasi "*qushlar*" ma'nosini bildirishi bilan birga ularni insonga yaqinlik tarzida ifoda etgan.
4. Parafrazalar o'z dennotatini tasvirlash xususiyatiga ega. Masalan: *bilim bulog'* parafrazasi kitobga xos bir xususiyatni tasvirlagan.
5. Parafrazalar polisemantik xususiyatga ega emas, u faqat bir ma'noda hosil bo'ladi.

Parafrazalar xuddi birikma atamalar kabi ko'proq ot turkumida bo'ladi. Lekin amalga minmoq, andoza olmoq kabi fe'l turkumidagi parafrazalarni uchratish mumkin.

Frazeologizmlar ham parafrazalar kabi yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligidir. Frazeologizm ma'nosi bir so'zga teng, lekin ulardan subyektning obyektga bo'lgan munosabatini ifodalashiga ko'ra semantik jihatdan farq qiladi. ya'ni *yulduzni benarvon uradigan* frazeologizmi *uddaburon* so'zi bilan bir xil ifoda semasiga ega. Biroq nutqning obrazli ifodasi so'zga nisbatan frazeologizmدا yuqori turadi. Va, albatta, frazeologizmlar ma'nosida pragmatik ma'no bo'ladi.

Frazeologizmlar shakl va ma'no butunligiga ega. Ya'ni shakl butunligini nutqda o'zgarishsiz tanlanishi bilan izohlash mumkin.

Masalan: *kapalagi uchub ketdi* kabi frazeologizmlarning qolipi har doim bir xil. Bunday birikmalarning shakl tuzilishiga hech bir qo'shimcha vositani qo'shib ham, ajratib ham bo'lmaydi.

Frazeologik birikma yoki gap qolipli bo'lganligi uchun u bir lug'aviy butunlikka aylansa-da, o'z sintaktik xususiyatini saqlab qoladi.

Frazeologizmlar so'z kabi lug'aviy birlik sifatida gap tarkibida biror bo'lak vazifasida keladi. Bunda gap qolipida frazeologizm ham kelishi mumkin.

Masalan: *Anvar bu gaplarni eshitgach tarvuzi qo'ltig'idan tushdi*. Ushbu gapdagi “*tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq*” iborasi semantik jihatdan *umidsizlandi* leksemasiga teng. Shu bilan birga ibora gapda birgina kesim vazifasini bajarib kelgan. Bunga sabab fe'llarning sintaktik vazifasi gapda kesim bo'lib kelish va gapni uyushtirishdir. Shuningdek, fe'l frazeologizmlarining vazifasi ham predikativlikdir.

Fe'l frazeologizmlarning hokim bo'lagi bo'lgan fe'lning semantikasi muhim ahamiyatga ega. Ya'ni fe'l frazeologizmning hokim qismi subyekt valentligiga ega. Fe'l qaysi subyektni talab qilayotganligi fe'l frazeologizmining hokim qismidan anglashilib turadi. Yuqoridagi misolda(*Anvar bu gaplarni eshitgach, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi*) predikat III shax birlik sonda kelgan. Shunga ko'ra shakl va mazmun talabi bilan subyekt ham III shaxs birlik sonda namoyon bo'lgan.

Badiiy matnni mutolaa qilar ekanmiz, unda ko'plab tasvir vositasi sifatida ifodalangan frazeologik birliklarni uchratamiz. Ayniqsa, bunday birliklar inson tana a'zolari nomlari bilan bog'liq. Masalan: “*qulog'iga quymoq*”, “*ko'z yummoq*”, “*oyog'i kuygan tovuqday*”, “*bo'yniga olmoq*”, “*boshiga yetmoq*” va shu kabi. Bunday birliklar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, fikrni emotsional

jihatdan tinglovchiga oson yetkazilishini ta'min etadi. Inson tana a'zolari nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar badiiy matnda personaj xarakterini, holatini, ruhiyatini va shu kabi tasvirlarni ochib berishda keng qo'llaniladi. Ya'ni ularning leksik semantikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bir frazeologik birlik kontekstual vaziyatda turlicha ma'no ottentkasini ifoda qiladi. Masalan:

*“Xotinining **chehrasi ochilib ketdi-da**, burilib ketar ekan, qizlarga xos sho'xlik bilan aylanib dedi:.....”* (A. Qahhor. “Mayiz yemagan xotin”)

Ushbu gapda qo'llangan “*chehrasi ochilib ketmoq*” iborasi nutq badiiyatiga xizmat qilgan. Bu ibora Sh. Rahmatullayevning “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”da *xursand bo'lmoq, xafagarchiligi tarqamoq, kayfiyati yaxshi* kabi ma'nolarni ifodalashi ta'kidlangan. Misolda ham aynan shu ma'noni anglash mumkin. Gapdagi bu frazeologik birlik inson tana a'zosining bir qismi nomi bilan namoyon bo'lgan. *Chehraso'zi* matniy sinonim so'zlardan bo'lib, bu so'z ijobiy ma'no ottentkasiga ega. Shu bilan birga, emotsional-ekspressiv leksika hisoblanadi. Ekspressiv leksikadan foydalanish matnning umumiy maqsad va yo'nalishi bilan bog'liq. Chehra so'zi matniy sinonim so'z ekan, o'z navbatida, *yuz, oraz, uzor, turq, aft, ruxsor* kabi so'zlar bilan bir sinonimik qatorni hosil qiladi. Va bir-biridan ijobiy- salbiy bo'yoqqa ega ekanligi bilan farqlanadi.

Yozuvchi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib, ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladi. Ma'nodoshlarning tilshunoslikda uch turi farqlanadi:

- 1) leksik ma'nodoshlar;
- 2) frazeologik ma'nodoshlar;
- 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlar.

Yuqoridagi misolda frazeologik ma'nodoshlik ifoda etilgan. Ya'ni bu birikmani “*yuzi kulmoq*”, “*chehrasi yorishmoq*”, “*chehrasini ochmoq*”

kabifrazeologik birliklar bilan erkin almashtirish mumkin. Bularda ham inson tana a'zosi nomlovchi birlik sifatida ahamiyatli hisoblanadi. ***Chehrasi ochilib ketdi*** ifodasi leksik-frazeologik ma'nodoshlikka ega ham hisoblanadi. Biroq bu iborani leksik-frazeologik birlikma deb qabul qilib, uni *xursand bo'lmoq* birlikmasi bilan almashtirsak, yuqorida aytganimizdek, ifoda semasi juda tor yuzaga chiqqan bo'lardi. Shuning uchun biz *chehrasi ochilmoqni* frazeologik ma'nodosh birlikma deb qarashimiz kerak. Chunki bu iboraning o'rniga yuqoridagi kabi o'z sinonimlaridan birini qo'ysak ham ekspressivlik yetarlicha ta'minlanishi tabiiy, albatta.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'z o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik birliklarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. Yuqorida keltirilgan misolda iboraning o'rniga "*Xotini xursand bo'lib ketdi-da, burilib ketar ekan.....*" jumlasini qo'yadigan bo'lsak, biz qahramonning xursand bo'lgan holatini umumiy tarzda shakliy tomondan, aniqrog'i, nisbiy mavhum holda tushunishimiz mumkin. Aksincha holda esa, biz personajning xursand bo'lishi bilan birga, uning ruhiyatini ham his qilamiz. Uning yuz tasviri ko'z oldimizga keladi va ayolning xursand bo'lishi bir zumda yuzaga kelganini ham anglash qiyin emas.

Yozuvchi odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydi. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Bu fikrimiz frazeologik birliklarning nutqqa tayyor holda olib kirilish xususiyatiga zid bo'lmasligi kerak, ya'ni iboralar nutqqa tayyor holda kiradi, lekin yozuvchi ma'lum maqsad yuzasidan undan qolip olgan holda qayta ishlashi mumkin. Masalan:

*"Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa o'zboshimcha harakatlariga yo'l qo'yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan **qo'l yuvishimiz** kerak bo'ladi". (Cho'lpon. "Kecha va kunduz")* Bu iboraning noyib to'ra nutqida ***qo'l yuvmoq*** tarzida qisqarishi nafaqat shakl ixchamligi uchun, balki ma'no siljishi uchun ham xizmat qilgan. Noyib to'raning *"voqealar shu taxlit davom etsa, oz vaqt ichida biz*

*qishloqni tashlab chiqishimizga to'g'ri keladi*” demoqchi ekanligi mazkur ibora orqali ta’kidlanishini Ma’rufjon Yo’ldashev ta’kidlab o’tgan. Bundan ko’rish mumkinki, ayni iboraning qisqargan varianti “*tashlab chiqmoq*”, “*ajralmoq*”, “*qochib qolmoq*” kabi yangi ma’no qirralari bilan matn badiiyatini boyitgan.

Inson tana a’zolarining nomlaridan, asosan, ko’z bilan bog’liq iboralar ko’p uchraydi. Masalan: “*ko’z o’ngiga keltirmoq*”, “*ko’z oldi qorong’i bo’lmoq*”, “*ko’z yummoq*”, “*ko’z ko’rib, quloq eshitmagan*”, “*ko’zi uchib turmoq*”, “*ko’zi o’tkir*” va shu kabi. Bu qatorni yana davom ettirish mumkin. Bunday iboralarni badiiy matnda qo’llash orqali yozuvchi turli holatlarni obrazli tasvirlashi mumkin.

Masalan: “*Ko’z ochib yumguncha, necha ming piyoda va suvori kishi paydo bo’ldi*”. (A.Qahhor. “Bashorat”)

Keltirilgan ushbu misolda *ko’z ochib yumguncha* iborasi semantik jihatdan tezda sodir bo’lgan yoki bo’ladigan voqea-hodisani ifodalash uchun qo’llaniladi. Bu ibora “O’zbek tilining izohli frazeologiklug’ati”da “*juda qisqa muddatda, tezda*” kabi ma’nolari izohlanadi. Uning sinonimlari sifatida “*hash-pash*” *deguncha*,

“*ha-hu*” *deguncha* iboralari keltirilgan. Bu iboralar xalq tomonidan yaratilgan bo’lib, amaliyotdan keltirilib chiqarilgan. Negaki, rostdan ham ko’zni bir yumib ochish juda qisqa fursatni bildiradi.

Iboraning kontekstual vaziyatda ifodalagan semalarini kuzatsak, izohli lug’atlarda shunday misol berilgan: “*Qish. Ko’z ochib yumguncha, qosh qorayib qoladigan kunlarning biri*”.

Bu misolda ham ibora juda qisqa va tezda o’tib ketadigan vaqtni ifodalagan. Bundan tashqari ushbu misolda inson tana a’zolari nomlari bilan bog’liq yana bir iboraga duch kelamiz: “*qosh qoraymoq*”. Bu iboraning o’zida ikki xil leksik ifoda yuzaga chiqqan. Biri frazeologik jihatdan “*qosh qorayib qoladigan*” iborasi “*ko’zochib yumguncha*” birikmasi bilan ma’noviy jihatdan biroz yaqin

tursa, ikkinchi tomondan *“qosh qoraib qoladigan kun”* da metafora munosabati ifodalangan. Ya’ni qoshning qoraligi kechqurungi vaqtning qoraligiga o’xshatilgan. Gapda leksik-frazeologik ma’nodoshlik namoyon bo’lgan. Ikki iborani yonma-yon qo’llash bilan nutq ta’sirchanligi va ixchamligiga erishilgan. Yoki:

- *“Narigi ko’chadagi machitning yarmi qulagan mezasiga ko’zim tushdi”.*  
(A.Qahhor. *“Dumli odamlar”*)

Keltirilgan keyingi misolda ham ko’z bilan bog’liq ibora emotsionallikni yuzaga keltiruvchi vosita vazifasini bajargan. *“Ko’zi tushmoq”* iborasining leksik semasi izohli frazeologik lug’atlarda kimgadiryoki nimagadir bexosdan, kutilmaganda ko’rmoq tarzida izohlanadi. Bu iboraning sinonimi sifatida *“nazari tushmoq”* iborasini keltirish mumkin.

Ma’lumki, aksariyat frazeologik birliklar ko’chma ma’noda qo’llanadi. Ularni o’z dennotatlari bilan almashtirsak, badiiy nutq ifodaviylikdan biroz yiroqlashgan holda oddiy, quruq bayonga o’xshab qoladi. Solishtirib ko’raylik:

- *“Narigi ko’chadagi machitning yarmi qulagan mezasiga ko’zim tushdi”.*
- *“Narigi ko’chadagi machitning yarmi qulagan mezasini ko’rib qoldim”.*

Har ikki gap semantik jihatdan, umuman, teng. Lekin ikkinchi gapda qo’llangan iboraning dennotativ ko’rinishining ekspressivlik quvvati birinchi gapga nisbatan past. Birinchi misolda ibora kutilmaganda, bexosdan yuzaga chiqqan voqea- hodisani ifodalagan. Bundan tashqari iboraning keyingi gapdagi asl ma’nosida qo’llangan birikmadan ma’no nozikligiga ko’ra farqlanishini yuqoridagi kontekstdan anglashimiz mumkin. Birinchi gapda o’zi xohlamagan tarzda, kutilmaganda yuzagan chiqqan voqea-hodisa ifodalanayotgan bo’lsa, ikkinchi gapda kutilmaganda sodir bo’lgan harakat bilan birga bu birikmani boshqa nutq vaziyatida aynan kutilgan ifodasi ham ifodalanishi mumkin.

Frazeologik birliklar gapda boshqa lingvistik birliklar singari valentlik xususiyatiga ega. Va o'z o'rnida, sintagmatik munosabatga kirishadi. Frazeologiya bilan unga bog'lanayotgan leksemalarning sintagmatik munosabati muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda, frazeologik qurshov ularning valentligi bilan chambarchas bog'liq. Semantik valentlik leksema bilan frazemalar o'rtasidagi hamda frazeologizmlarning o'zaro sintagmatik munosabatlarini ta'minlaydi. Frazeologik birliklarning boshqa lingvistik birliklar bilan bog'lanish imkoniyatining voqelanishi sintagmatik munosabat orqali namoyon bo'ladi.<sup>12</sup>Frazeologik birlik bog'lanib kelgan birlik nutqda turli sintaktik vaziyatda kelishi mumkin. Bunday munosabat frazeologik birliklarning ma'nosini to'ldirib, aniqlashtirib beradi. Masalan yuqoridagi misolda:

*“Ko'z ochib, yumguncha necha ming piyoda va suvori kishi paydo bo'ldi”.*

Misoldagi *ko'z ochib, yumguncha* iborasida *bir zumda, tezdakabi* semalar mavjud. Gapdagi *ko'z ochib, yumguncha* ifodasining valentligi *paydo bo'lmoq* so'zi orqali va subyekt vazifasidagi *piyoda va suvori kishi* so'zlari orqali to'ldirilgan. Ya'ni iboraning asl mohiyati sintagmatik munosabat natijasida yaqqol ifodalangan.

Frazeologik birliklar ot bilan ifodalangan so'zlar bilan ham valentlik hosil qilishi mumkin. Ba'zan frazemalarning ma'nosi o'zidan oldingi so'z bilan birgalikda anglashilgandagina yuzaga chiqishi mumkin. Masalan:

*“.....bir nima demoqchi bo'lib gap boshlagan edi, Mastura so'zini **og'zidan oldi**”.*  
(A. Qahhor. “Ming bir jon”)

Bu gapdagi *og'zidan olmoq* iborasi o'zida gapini *bo'lmoq, to'xtatmoq* kabi semalar mujassamlashgan. Misolda esa bu fraza yashirin holda kelayotgan “uning” hamda so'zini ifodalari bilan birgalikda reallashgan. Frazeologik birikmaning leksik semasi ham yuqoridagi kabi “...bir nima demoqchi bo'lib gap boshlagan edi, Mastura uning so'zini bo'ldi” tarzida izohlanishi mumkin. Demak, frazema gapda ot va olmosh so'zlar bilan valentlik hosil qilgan.

---

<sup>12</sup> G'aniyeva. Sh. “Frazeologizmlarning holat valentligi xususida” / O'zbek tili va adabiyoti. 2016-yil 1-son 103-bet/

Frazeologizmlarning dennotativ ma'no anglatishdan tashqari, uning emotsional-ekspressiv vazifasi ham muhim ekanligini yuqorida misollar orqali keltirgan edik. Buni quyidagi misolda ham kuzatish mumkin:

*“Bizning qishloqda G’afforjon degan **qo’y og’zidan cho’p olmagan**, buning ustiga hech kimi yo’q bir yigit bor edi”. (A.Q. “Xotinlar”)*

Ushbu misolda ko’rib turibmizki, yana inson tana a’zosi - og’iz bilan bog’liq frazema ifodalangan. Iboraning leksik ma’nosi “O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati”da *nihoyat darajada beozor, mo’min, yuvosh* tarzida izohlanadi. Misolda qo’llangan iboraning valentlik jihatiga nisbatan ekspressivlik vazifasi bu o’rinda ustun turadi. Negaki, **qo’y og’zidan cho’p olmoq** ifodasi nutqiy qurshovda ham, nutqdan holi o’rinda ham birdek yuvosh semasini izohlaydi. Shuning uchun matnda uni emotsionallik belgisi jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiq bo’ladi. Ya’ni gapda frazemaning o’rniga izohli lug’atda keltirilgan tub ma’nosi qo’yilsa:

*- “Bizning qishloqda G’afforjon degan **qo’y og’zidan cho’p olmagan**, buning ustiga.....”*

*- “Bizning qishloqda G’afforjon degan **mo’min**, buning ustiga hech kimi yo’q bir yigit bor edi”.*

Ikkala gapda ham semantik tenglik mavjud. Birinchi gapda qo’llangan ibora bilan Ikkinchi gapda qo’llangan leksema ma’no umumiyligini hosil qilgan. Shu bilan bir qatorda, uslubiy-ekspressiv bo’yoqdorlikka ko’ra bir-biridan farqlangan. Muallif ushbu matnda iboraning o’rniga *mo’min, beozor* leksemalaridan birini qo’yishi ham mumkin edi. Lekin ta’sir doirasi frazema kabi keng ifodalanmagan bo’lardi. Bundan tashqari bu gapda keltirilgan ibora qahramonning xarakter-xususiyatini ifodalashga xizmat qilgan. O’quvchi Ga’fforjonning xarakteri beozor, mo’min ekanligini frazema orqali tez va tasavvur hosil qilgan holda anglaydi. Muallifning bu gapga ibora kiritishdan dastlabki maqsadi G’afforjonning

xarakterini tavsiflash bo'lsa, keyingi maqsadi ana shu tavsifni ifodaviy, obrazli yo'sinda yetkazish bo'lgan va bu maqsadga bevosita erishilgan.

Tilda nominativ ma'noli, uslubiy bo'yoqdan holi bo'lgan so'zlar bilan bir qatorda, emotsional- akspressiv bo'yoq kasb etuvchi so'zlar ham mavjud ekanligini frazeologik birliklar misolida ko'rdik. Mana shunday bo'yoq hosil qilishda ma'no ko'chish turlari ham muhim ro'l o'ynaydi. Masalan: xo'rozqand, boshiga yetmoq, yo'l yoqasi, bosh, oyoq, ko'z kabi so'zlarda metaforik, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi ma'no ko'chishlariga ko'p duch kelamiz. Bunday ma'no ko'chishi frazeologik birliklarda ham kuzatilishi mumkin. Bunda yana inson tana a'zolari nomlari bilan ifodalangan frazeologik birliklarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Quyidagi misolga diqqat qilsak:

*“....o'zidan past odamni oyog'i bilan ko'rsatar, o'zidan yuqori odamning esa oyog'iga yiqilar ekan”.* (A.Qahhor. “Xotinlar”)

Misolda ***oyog'iga yiqilmoq*** iborasi qo'llangan bo'lib, uning zamirida tiz cho'kmoq, xokisor bo'lmoq, xokisorlik qilmoq kabi semalar mavjud. Iboraning sinonimlari sifatida oyog'iga bosh urmoq, oyog'iga bosh qo'ymoq kabi ifodalarni keltirish mumkin. Yuqoridagi misolda personajning xarakteri antiteza tarzida berilgan. Ya'ni bir vaqtning o'zida qarama-qarshi xususiyatga ega shaxs qiyofasini ochib berishga harakat qilingan. Ushbu parchani o'qigach, kitobxon qahramonning o'zidan mavqeyi past odamlarga mensimay qarashi, va o'z navbatida, o'zidan yuqori odamlarga langanbardorlik qilib, hatto oyog'iga ham yiqilishga tayyor bo'lgan “kimsa” ekanligi anglaydi. Bundan tashqari matnda ekspressivlik faqat ibora orqali emas, balki metonimiya bilan ham yuzaga kelgan. Ya'ni oyog'iga yiqilmoqning leksik ma'nosi yer bilan bog'liq. Oyoq yerda bo'lgani uchun predmet va u orqali predmet turgan joy ifodalangan. Shuning uchun ijodkor metonimik ma'noga ega frazema orqali matnga badiiy bo'yoq bergan.

Badiiy matndagi iboralarni kuzatsak, deyarli holatda inson tana a'zolari nomlari bilan bog'liq. Bunga sabab, iboralar ifodalayotgan ma'no aynan inson tana

nomlariga bog'liq tushuncha ifodalaydi. Masalan: *ko'zim uchib* turibdi iborasi ko'rgim kelmayapti; *qulog'iga quydi* – nasihat qildi yoki nimanidir tayinlab aytdi; *ko'zitushdi* – ko'rib qoldi; *qo'l siltadi* iborasi esa voz kechdi kabi semalarni ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, barchasida iborada aytilayotgan nom bilan bog'liq tushuncha anglashilyapti. Quyidagi misolda ham ayni shu holni kuzatamiz:

*“Do'stlarim gangir- gungur suhbatlashib o'tirishibdi. Men bo'lsam ichkaridan chiqayotgan alla sadosiga **quloq solaman**”.* (O'.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Ushbu misolda keltirilga *quloq solmoq* iborasida berilib tinglamoq, zimdan eshitmoq kabi semalar mavjud. Bu iboraning leksik ma'nosi “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”da tinglamoq, aytganini qilmoq tarzida izohlangan. Sinonimlari sifatida *quloq osmoq*, *quloq bermoq* kabilarni keltiradi. Demak, quloq solmoq iborasi matn tarkibida frazeologik ma'nodoshlikni hosil qilib, yuqoridagi sinonim variantlari bilan erkin almashina oladi. Berilgan misolda quloq solmoq ifodasi alla sadosiga so'zlari bilan birikib valentlik hosil qilgan va sintagmatik munosabatga kirishgan. Misolda bu iboraning leksik ma'nosini alla sadosini berilib, hamma narsani unutgan holda jon dili bilan tinglayotgan personajni ifodalagan deya izohlash mumkin. Negaki asarda qahramon turgan vaziyat tinch emas, do'stlarning gangir-gungur suhbatlari.... Shunga qaramay, qahramon alla sadosini tinglamoqda. Agar gapdagi iboraning o'rniga eshitmoq yoki tinglamoq so'zlaridan birini qo'yganda muallif maqsadi aniq yuzaga chiqmas, matnning ekspressiv quvvati ham past bo'lardi.

Badiiy matnda yozuvchining mahorati uni so'z tanlash mahorati bilan belgilanadi. So'zlikning tanlanishini lingvistik o'rganish orqali esa muallif maqsadini bilish mumkin. Bunda frazeologik birliklarning qat'iy holati ham muhim ahamiyatga ega ekanligini yuqoridagi misollar ham izohlashi mumkin.

Frazeologik birliklardan badiiy asarlarda kulgi qo'zg'atishda ham keng foydalaniladi. Frazeologik birliklar nutq jarayonida tuzilmay, balki tinglovchining

e'tiborini mazkur birikmaning to'g'ri ma'nosiga qaratiladi. Askiyabozlikda kulgi qo'zg'atish maqsadida so'zlarning ko'chma ma'nolaridan keng foydalaniladi va bunda birikmaning to'g'ri ma'nosi izohlanishini kulgiga sabab qiladi<sup>13</sup>.Frazeologik birliklar ko'chma ma'no, obrazlilikni ifodalaydi. Frazemalar semantikasining uslibiy jihatdan baholanishi erkin birikmalarga nisbatan yuqori turadi.

Frazeologik birliklarning badiiy matn tarkibida qanday semalar ifoda etishini yuqoridagi misollarda ko'rib o'tdik. Shuningdek, inson holatini aks ettirishdan tashqari, frazeologik birliklar kulgi qo'zg'atishda ham keng qo'llaniladi. Bu ko'proq dialogik nutqda yuzaga keladigan so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini qiyoslash natijasida hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan so'z ustasi Hojiboy Tojiboyevning **“O'zbekning gapi qiziq”** ruknidagi so'z o'yinlarida *“samovarda osh yedik”*, *“kecha oshda ko'rinmadingiz”* va shu kabi frazeologik birliklarni ko'p uchratamiz. Bularni semantik jihatdan tahlil qilsak, ularning to'g'ri ma'nolarida kulgili bir vaziyat namoyon bo'ladi. Masalan: *“To'rt kishi samovardaosh yedik”*. Nutqda so'zlovchi maqsadli ravishda **“samovarda o'tirmoq”** birikmasining metonimiya yo'li bilan ko'chgan ma'nosiga emas, balki tinglovchining e'tiborini mazkur birikmaning to'g'ri ma'nosiga qaratadi.<sup>14</sup>Negaki Frazelogik birlikni kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vosita sifatida qo'llaganimizda, aynan, to'g'ri ma'nosini izohlash orqali bunday maqsadga erishamiz. Bu birliklar til jihatdan metonimik ma'no ko'chishi ostida amalga oshgan. So'zlarni metonimik qo'llash, ularning semantikasidagi o'zgarishlar tinglovchiga estetik ta'sir o'tkazadi.

---

<sup>13</sup>Abdurahmonov. Sh. “O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar” 16-bet.

<sup>14</sup>Abdurahmonov.Sh.“O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar” 16-bet

## 2-fasl. Frazeologik birkliklar – badiiy tasvir vositasi sifatida

Badiiy matn ijodkor tomonidan borliqni anglash asosida qayta ishlangan “mahsulot” sanaladi. Har qanday ijodkor asar yaratish chog’ida adresant va adresat munosabatini hisobga olgan holda yaratadi. Chunki asar yaratilgunga qadar muallifga tegishli bo’lsa, yaratilgandan so’ng u asar omma uchun tegishli bo’ladi. Shuning uchun ijodkor asarni yaratish chog’ida uni kitobxon tomonidan qay darajada qabul qilinishini o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi.

Badiiy matnda qo’llangan har bir vositalar “badiiy tasvir vositasi” deb yuritiladi. Shuningdek, badiiy matnda qo’llangan har qanday birlik ma’lum maqsad yuzasidan asarga olib kiriladi. Hattoki, rassomlar ham qaysidir bir chizgini bejiz keltirmaydi. Shunday ekan, frazeologizmlarning ham badiiy matnlardagi ahamiyati o’rinlidir. Frazeologizmlar badiiy matnda ekspressivlikni ta’minlovchi leksik vosita sifatida namoyon bo’ladi. Sababi frazeologizmlarning ifoda semasi leksemalar qatorida berilishini yuqorida ta’kidlagan edik.

Frazeologizmlarni badiiy matnda qo’llash nutqni adresantga tez va oson yetishini va ifodaviylik jihatdan samarali ta’sir ko’rsatishini ta’minlaydi.

Masalan: *“O’n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo’lni yuvib qo’ltiqqa urabering”*. (A.Qahhor. *“Mayiz yemagan xotin”*)

Ushbu misolda qo’llangan *“qo’lni yuvib qo’ltiqqa urmoq”* iborasi Shavkat Rahmatullayevning *“O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati”*da *ixlosiqaytib, ishonmay qo’yib, diqqat- e’tiboridan soqit* qilmoq kabi ma’nolarni ifodalashi ko’rsatilgan. Demak, ushbu misol *“O’n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan ixlosingizni qaytaravering”* tarzida ham qo’llanishi mumkin edi. Ko’rinib turibdiki, keyingi o’rinda ham *“ixlosi qaytmoq”* iborasi qo’llanyapti. Agar frazeologik birlikning o’rniga to’g’ri ma’nodagi *ishonmay qo’ymoq* so’z-shaklini qo’ysak, nutq to’g’ri ma’noda ifodalangan bo’ladi. Yoki keyingi misolni olaylik:

- *“Po’latjonni tuppa- tuzuk yigit deb ixlos qo’yib yurgan edim, hafsalam pir bo’lib, qo’limni yuvib qo’ltig’imga urib qo’yganman. (S.Ahmad. “Qadrdon dalalar”) <sup>15</sup>.*

Ikkinchi misolda qo’llangan *“qo’lni yuvib qo’ltiqqa urmoq”* iborasi birinchi misoldagi kabi *ixlosi qaytmoq, umidini uzmoq* kabi ma’nolarni ifodalagan.

Bu gaplarda qo’llangan frazeologizmlarni asl to’g’ri ma’nodagi so’z bilan ifodalash ham mumkin.

Solishtiraylik:

1. *O’n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo’lni yuvib qo’ltiqqa urabering.*

2. *“O’n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan ixlosingizni qaytarabering”.*

Har ikkala gap semantik jihatdan o’zaro teng. Lekin har ikkisibir- biridan matniy sinonimlik, aniqroq qilib aytsak, emotsional- ekspressivlik jihatdan farqlanadi. Birinchi gapda qo’llangan ibora nutq ta’sirchanligini oshirgan va kitobxonga yetkazilmoqchi bo’lgan fikr tez ta’sir ko’rsatadi. Ikkinchi misol esa mazmun jihatdan oddiy bayonga yaqin turadi. Shuning uchun frazeologizmlarni nutqda qo’llash nutq ta’sirchanligining asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Bunday birikmalarning ta’sir doirasining kengligini uning quyidagi xususiyatlari bilan bog’liq deb ko’rsatish mumkin:

- frazeologizmlar nutqqa tayyor holda olib kirilishi;
- tuzilish va tarkibning doim bir xilligi;

---

<sup>15</sup> Rahmatulayev. Sh *“O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati” / “O’qituvchi”* nashriyoti Tosh.1978-yi

- ma'no yaxlitligiga egaekanligi.

Yuqoridagi misollarda ham ko'rdikki, hech bir frazaning o'rniga boshqa so'zni qo'yib bo'lmaydi yoki ularning orasiga boshqa birliklarni ham kiritish mumkin emas. Chunki frazeologik birliklar bizga qadar tilda shakllanib, sayqallanib bugungi kunda bo'linmas holga kelib qolgan.

Badiiy matnlarda qo'llanilayotgan frazeologik birliklarga e'tibor bersak, ular orqali ifodalanayotgan fikr ixchamlashadi va obrazli ifodalanadi. Bundan tashqari personaj xarakteri yoki holatini ifodalashda ham frazeologik birliklar eng chiroyli o'xshatish vositalaridan bo'lib xizmat qiladi. Masalan: “ *it quvgan tulkiday...*”, “ *tomdan tarasha tushganday..*” va hokazo.

### **III BOB. Inson tana a'zolarini bildiruvchi iboralarining imo-ishoralar orqali ifodalanishi**

#### **1-fasl. Inson tana a'zolari bilan bog'liq frazeologizmlarda harakat ma'nosini berilishi**

Ma'lumki, til aloqa – axborotning eng qulay vositasi hisoblanadi. Insonlarning xatti-harakatidan ham ma'lum bir ma'no anglashiladi. Insonning tana a'zolaridan bosh, ko'z, qo'l, qosh, barmoq, til, tish, lab kabilarning jismoniy harakati orqali ham nutq jarayonida ma'lum bir belgini ko'ramiz, his qilamiz. Ularni imo-ishoralar va mimikalar deyish mumkin. Nutq vaziyatiga mos holatda imo-ishoralar ham turlicha bo'ladi. Adabiyotlarda ibtidoiy odamlarning tili dastlab, imo-ishoralar tili bo'lganligi aytiladi.

Professor Abdulhamid Nurmonov nutqda imo-ishoralarni qo'llash sabablarini quyidagicha ko'rsatadi:

Avvalo, tashqi va ichki sabablar. Unga ko'ra, agar suhbat ochiq joyda bo'lsa-yu, suhbatdoshlar orasidagi masofa uzoq yoki yaqin bo'lib, suhbat jarayoniga kuchli shovqinlar halaqit bersa, aksincha, so'zlovchi yoki tinglovchining subyektiv holati yaxshi bo'lmasa (kar yoki soqov bo'lishi mumkin) imo-ishora va mimikalardan foydalanish ehtiyoji tug'iladi.

Imo-ishoralarning qo'llanilishi nutq uslublariga, notiqning mahoratiga ham bog'liq. Nutq vaziyatida ozchilikka ma'lum bo'lgan narsani boshqalarga sezdirmaslik, pinhon tutish uchun kinetik vositalardan foydalaniladi.

Aloqa ochiq hududda bo'lib suhbatdoshlar o'rtasidagi masofa olisligidan tovushlar yetib kelishi qiyin bo'lib qolsa ham imo-ishoralardan foydalaniladi

Nutq vaziyatida ma'lum bir ma'noni ifodalovchi imo-ishoralar shu nutq vaziyatini qayta hikoya qilib berish jarayonida ma'lum lingvistik birliklar yordamida tasvir qilinadi. Shu jihatdan har bir tilda imo-ishoralarni ifodalovchi bir qator fe'llar mavjud. Ular semantik tomondan ishora fe'llari deb

yuritiladi<sup>16</sup>. Professor Nurmonov “O‘zbek tilining inkor ma’nosini ifodalovchi paralingvistik vositalari” maqolasida ishora fe’llarini keng tadqiq qiladi.

Ustoz Ma’murjon Saidxonov “Ishora fe’llarini o’rgatish xususida” nomli maqolasida shunday fikrlarni aytadi:

“Ishora fe’llari ramziy ma’no ifodalab, kishi ma’lum organlarining harakati natijasida hosil bo’lib, nutqda ikkilamchi ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, **ko`zini qisdi** birikmasidan anglashilgan denotativ ma’no harakat jarayonining ro’yobga chiqqanligi haqidagi xabarni uzatsa, uning ishoraviy ma’nosi kontekst va vaziyatdan kelib chiqqan holda hazil, pinhona, boplamq, zid fikr va boshqa ko’plab ma’nolarni bildirib keladi.

Ishora fe’llari biror holatga, voqea-hodisaga ishora qilish asosiga qurilgan bo’lib, garchi harakat ma’nosini ifodalasa-da, ularda ko’proq munosabat ma’nosi ustuvor bo’ladi.

Ishora fe’llari kishilar o’rtasidagi muloqotni shakllantiruvchi xatti-harakatlarning verbal (lisoniy) ifodasi bo’lib, imo-ishora va boshqa ma’no bildiruvchi gavda harakatini ifoda etadi, ikkilamchi – ishoraviy ma’noni bildiradi.

Ishora fe’llari guruhiga kiruvchi fe’llar struktural jihatdan ikki ko’rinishda bo’ladi:

1. Somatik fe’llar orqali kishi tana a’zosining harakati ifodalanadi. Masalan, bosh iring`amoq (boshni vertikal harakatlantirish) – tasdiq ma’nosi.

2. Sensual fe’llarda ishora mazmuni kontekstda reallashadi<sup>17</sup>.

Imo qilmoq, im qoqmoq kabi.

---

<sup>16</sup>Нурмонов А.Танланган асарлар 1 жилд, 176-бет.

<sup>17</sup>SaidxonovMa’murjon “Ishorafe’llarinio’rgatishxususida” Tilvaadabiyotta’limi 2009-yil 10-son, 7-bet

Maqolada somatik ishora fe'llari tuzilishi jihatidan ikki guruhga bo'linadi:

1-komponenti **bosh, qo'l, yelka, qosh, ko'z, lab, til, tish, burun, gavda, peshona, oyoq** kabi so'zlardan iborat bo'ladi. Ikkinchi qismi kishi a'zolarining mos ravishdagi harakati ma'nosini bildiradi: qosh uchirmoq, burun jiyirmoq kabi birikuvdan ishoraviy ma'no ifodalovchi qo'shma fe'llarni hosil qiladi.

Somatik ishora fe'llari tasvirlovchi, ko'rsatuvchi ishoralarni ifoda etganda, uch yoki undan ortiq so'zlar ishtirok etadi: ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga buramoq (aqlidan ozgan, jinni ma'nosida). Bunday so'zlar kompleksida ham kishi organi va uning harakati ifodalanadi.

Ishora fe'llarini turli adabiyotlarda kinegramma, somatik ibora, frasema, ibora nomi bilan ataydilar.

Biz ishora fe'llarini tuzilish jihatidan turg'un so'zlar kompleksi degan fikrga qo'shilamiz(Reyzenzon va Abrames). Bu fe'ldagi turg'unlik xususiyati va boshqa semantik jihatlar erkin so'zlar qo'shiluvidan farqlanib turadi<sup>18</sup>.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” dan o'rin olgan imo-ishora fe'llarini yuqoridagilar asosida tahlil etishga harakat qilib ko'ramiz

---

<sup>18</sup>O'sha maqola 13-bet

## 2-fasl. O`zbek tili izohli lug`atida imo-ishora ifodalovchi frazologizmlarning berilishi

“O`zbek tilining izohli lug`ati” da quyidagi ishora fe`llari yoki turg`un so`zlar kompleksini uchratamiz:

Barmog`ini bigiz qilmoq, boshini egmoq, boshni qimirlatmoq, boshini likillatmoq, qoshini uchirmoq, qoshini chimirmoq, bo`ynini qismoq, ko`zini qismoq, yelkasini qismoq, burnini jiyirmoq, peshonasini tirishtirmoq, ko`z suzmoq, labini burmoq va h.k. Shuni ham aytib o`tish kerakki, ushbu birikmalar 2 komponentli bo`lgani uchun (ot+fe`l) izohli lug`atda ot yoki fe`l turkumidan topishimiz mumkin. Masalan, burnini jiyirmoq birikmasini burun so`zi izohidan topa olmaysiz, bu birikma jiyirmoq so`zining izohida beriladi.

Kichik tadqiqotni bosh so`zi bilan bog`liq ishora fe`llarini ko`rib chiqishdan boshlaymiz. Lug`atda birgina bosh so`zi bilan bog`liq bir qancha ishora fe`llari uchraydi. Bunda bosh so`ziga fe`l so`z turkumi birikib, ishora fe`llari hosil qilinganini ko`ramiz.

|                            |                                                |
|----------------------------|------------------------------------------------|
| <b>Bosh irg`amoq</b>       | <b>O`zbek tilining izohli lug`ati, 227-bet</b> |
| <b>Bosh silkimoq</b>       | O`zbek tilining izohli lug`ati, 501-bet        |
| <b>Bosh tebratmoq</b>      | O`zbek tilining izohli lug`ati, 45-bet         |
| <b>Boshini qimirlatmoq</b> | O`zbek tilining izohli lug`ati, 293-bet        |

|                       |                                         |
|-----------------------|-----------------------------------------|
|                       |                                         |
| <b>Boshini egmoq</b>  | O`zbek tilining izohli lug`ati,         |
| <b>Bosh chayqamoq</b> | O`zbek tilining izohli lug`ati, 446-bet |

Ko`rinadiki, tana a`zolaridan boshning gorizontal, vertical harakatlanishidan bir qancha munosabatni uqib olish mumkin.

**Bosh silkimoq** – 1. Boshni qimirlatmoq 2. Boshni quyiga harakatlantirish bilan tasdiq ishorasini qilmoq (O`TIL, 501-bet). Ushbu birikma silkimoq ishora fe`lining izohida berilgan.

*-O`tir, qanaqa odamsan o`zi, - Said Yusufning bilagidan ushlab, mashinasining orqa o`rindig`iga majburan o`tqazib oldi va suril, dedi. So`ng Mirazimga yana bir **bosh silkib**, ketdik degandek haydovchining yelkasiga urib qo`ydi.* Bosh silkish kontekst doirasida o`zbeklarga xos hol-ahvolini bilish, “yana gaplashamiz, sog` bo`l, ko`rishganimdan xursandman” ma`nosida qo`llanmoqda.

*Noyib mehmonga Miryoqubni tanishtirganida, u “o`tirgan o`rnida sekingina **bosh silkib** qo`ydi”.* (Cho`lpon “Kecha va kunduz”). Bu yerda ham salomlashish ma`nosi mavjud. Ko`rinadiki, bosh silkimoq fe`li konnotativ ma`noda “salomlashmoq, hol-ahvol so`ramoq” semalarini o`zida birlashtirgan.

Bosh silkimoq biron narsa yoki shaxsni ko`rsatish, ishora qilish ma`nosida ham qo`llanadi:

*Men uni fosh qilmoqchi edim, - Grishanni, **bosh silkib ko`rsatdi** u – bu iblis sizlarning hammalaringizni yo`ldan urgan.* (Ch,Aytmatov)

Bosh silkimoq fe`li fikrni tasdiqlash ma`nosida ham qo`llanadi.

**Bosh irg`amoq** – irg`amoq so`zi tebratmoq, chayqatmoq, silkitmoq (boshni) ma`nolarini bildiradi. (O`TIL, 227-bet). Bu fe`l polisemantik bo`lib, turli ma`nolarda qo`llanadi.

-salomlashish ma`nosida: *To`lqin **bosh irg`ab**, xohlamaygina alik oldi.* (T.Malik);

*U darvozadan kirarkan, oshxona tomonda turgan Yusufga ko`zi tushib, **bosh irg`ab** qo`ygandi* (U.Hamdam);

*Salom Xadicha ! – dedim unga xushmuomalalik bilan. U jimginab**bosh irg`ab** qo`ydi.* (Ch.Aytmatov).

-fikrni tasdiqlash, ma`qullash ma`nosida: *Sattor tobelik bilan **bosh irg`ab**, “ma`qul” ishorasini qildi; Oftobxon amakivachchasining gapini **bosh irg`ab** tasdiqlagan bo`lib, xo`rsindi* (T.Malik);

*-Sen bizga xiyonat qilding it uvli!*

*Anvar bosh irg`atdi.*

*-Iqrorman* (A.Qodiriy).

Demak, bosh irg`amoq fe`lining qo`llanishi kontekstga qarab belgilanar ekan.

**Bosh chayqamoq** – chayqamoq fe`lini kuzatganimizda, chayqamoq so`zining ma`nosi “u yon bu yon tebratmoq” ekanini ko`ramiz(O`TIL< 446-bet). Bosh chayqamoq ishora fe`li esa turli ma`nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bosh chayqamoq, bosh irg`amoq bir-biriga qarama-qarshi ma`noni ifodalaydi.

-Ojizlik, bilmaslik, afsuslanish, attang, ma`nosida:

*Bog`da gul **bosh chayqar**, Men bergan savol*

*Qarshisida lol... (E.Vohidov);*

*Sultonali afsuslangandek **bosh chayqab** qo`ydi.(A.Qodiriy)*

Hayrat, uyat ma`nosida:

*Agar Farhodning Shirin, bo`lsa Majnunlarning Laylosi*

*Nasib o`lmish menga gulshan aro gullarning Ra`nosi.*

*Anvarning qalamidan qog`ozga tushib borg`an so`zlarni ta`qib etkan Ra`no, qog`ozdan ko`zini olib qizardi va **bosh chayqab** teskariga qaradi(A.Qodiriy)*  
Matnda bosh chayqash xuddi “uyat emasmi” degandek hayratlanish ma`nosini bildiradi.

Rad etish, qoniqmaslik ma`nosida:

*-Yo`-o`q, - dedi usta **bosh chayqab**; Bu gapni eshitib Maxsuma norozi qiyofada **bosh chayqadi**. (T.Malik); Ra`no ichmayman degandek **bosh chayqadi**; Ammo Kalonshoh qanoatlanmagandek qilib **bosh chayqadi**.(Abdulla Qodiriy);*

*So`rayman:*

*Sizmasmi Sharifaniso,*

*Yo`q deb **bosh chayqashar**...(E.Vohidov);*

Hayron qolish, qoyil qolish ma`nosida:

*Saida uning maqtovlariga juda ahamiyat berib, “Umidaga qoyil” degan ma`noda bosh chayqab quloq berar ekan: Qani endi mana shunaqa o`quvchi epchil, g`ayratli odamlar byuroda ko`proq bo`lsa! dedi” (A.Qahhor);*

Rohatlanish ma`nosida:

Kamolxonov nonni bir iloj qilib yedi va mazza qilganiga ishora qilib bosh chayqadi.(A.Qahhor). (Ushbu ishora fe`lining ikki ma`nosi A.Nurmonovdan olindi).

**Bosh qimirlatmoq** – bosh qimirlatib salomlashmoq (O`TIL, 293-bet)

Fikrni tasdiqlash ma`nosida ham ishlatiladi:

*Sen aytganingdan keyin, nima ham qila olardim! – dedi-da xo`p degandek **bosh qimirlatdi**.* (Ch.Aytmatov. Sarvqomat dilbarim)

*-Yigirmasiga keluvdingizmi? Rahmatli yaxshi ayol edi, Rashid hamdardlik bildirgan bo`ldi. Yusuf **bosh qimirlatdi**.* (U.Hamdam “Muvozanat”)

**Bosh tebratmoq** - Tebratmoq – tebranma harakatga keltirmoq, bir tekisda u yoq bu yoqqa chayqaltirmoq; umuman qimirlatmoq (O`TIL, T, 45-bet) Boshni tebratmoq. –Eh, Ona bug`u, sen odamlarni bilmaysan, -bosh tebratdi Cho`tir baymoq kampir... (Ch.Aytmatov “Oq kema”).

**Qo`l ko`tarmoq** – rozilik, xohish yoki ovoz berish ishorasi sifatida qo`lini yuqoriga ko`tarmoq. 2. Taslim bo`lmoq. 3.ko`chma. Birovni urish, zarba berish uchun xezlanmoq (O`TIL, 403-bet)

Rozilik xohish ma`nosida qo`llanadi: *Oxiri sinf jonlanib ketib, bolalar **qo`l ko`tarib** : “Men boraman, ishlashga men ham boraman” deb chug`urlasha boshlaganlarida Tinaliyev darhol aniqlik kiritdi...*(Ch. Aytmatov);

*Ne deb aytar ul baobro` anjuman*

**Qo`l ko`tarsin** ushbu holga rozilar (E.Vohidov).

Nurmonov domlaning “O`zbek tilida qo`l harakatining inkor ma`nolarini ifodalashi” mavzusidagi fikrlariga asoslanib, qo`l bilan bog`liq imo-ishoralarni ko`rib chiqamiz.

1.O`ng qo`l kafti oldinga ochilgan va tepaga ko`tarilgan holatda avval chap, keyin o`ng tomonga gorizontal silkitilib, qo`l o`rtaga kelganda to`xtaydi. Bunda inkor ma`nosi anglashiladi, lekin nimaning inkori ekanligiga ko`ra farqlanadi.

Harakatni bajarmaslik:

gapirish harakatining inkori – “aytma” ma`nosida:

Muhammadjon aka yana e`tiroz bildirish uchun og`iz juftlamoqchi bo`lgan boyagi “mehribon qarindoshlarini” “Gapirmang!” degandek **qo`l ishorati** bilan shashtidan qaytardi-da, davom qildi...kishi qachon ketishini bilmas ekan (U.Hamdam “Muvozanat”).

O`zbeklarda bosh, qo`l va qisman lab harakatlari inkorni bildirar ekan.

**Qo`l silkimoq**– qo`l siltamoq (O`TIL, 501-bet)

Xayrlashish ma`nosida qo`llaniladi:

*Qizning **qo`l silkib** xayrlashib qolganidan, buning ustiga bahor chog`i keng sahro qo`ynida yelib borayotganimdan o`zimni benihoya baxtiyor his etdim...(Ch.Aytmatov);*

Qo`l siltash – bilakning tikka holatidan pastga bir marta silkitilishi so`zlovchining suhbatdoshning fikriga qo`shilmaganini yoki ma`lum bir harakatni bekor qilishni bildiradi:

*Xabaring bordir, Tursunov nafaqaga chiqqan. Aslida, hamma gap ana shunda. Chunki meni... Said **qo`l siltadi**. –Ke, qo`yaylik, shu gaplarni (U.Hamdam “Muvozanat”);*

*Himoyachi savolga javob bermay **qo`l siltaganicha** davradan chiqdi.(T.Malik).*

Kinetik vositalar ichida eng faol qo'llanadigani qo'l harakati hisoblanar ekan.

**Barmog`ini bigiz (yoki nayza) qilmoq** – ko`rsatkich barmog`i bilan ishora qilmoq, tanbeh bermoq<sup>19</sup>. –Haqorat qilma, - Qobil **barmog`ini bigiz qilib**, o`tapga o`shqirdi. (H.G`ulom, “Mash`al”). Bu yerda ishora fe`lining ma`nosi kuchaytirib qo`llanganini ko`rish mumkin.

Mana bu misolda esa boshqacharoq: “U hamon orqamdan **barmog`ini bigiz qilib**: -Kulasan-da, shayton qiz, kulasan-da, -deyardi” (Rashod Nuri Guntekin “Choliqushi” M.Ismoiliy tarjimasi). Ushbu gapda barmog`ini bigiz qilmoq fe`li, avvalo, jismoniy harakatni bildirib, keyin ogohlantirish, yengil tanbeh ma`nolarini bildirmoqda. Ko`rinadiki, har bir gapda ishora fe`li kontekst doirasida, vaziyatga mos ma`no anglatish uchun xizmat qilmoqda.

Xuddi shunday ishora boshqacha shakllarda ham uchraydi: “Haydovchi ko`rsatkich **barmog`ini havoda o`ynatib**, “Ha, senimi!” degandek yengil po`pisa ham qilib qo`ydi”. (Ulug`bek Hamdam “Muvozanat”).

Labini burmoq – E`tiroz, norozilik belgisi sifatida labini harakatlantirmoq<sup>20</sup> “*G`aram ortida taltayib yotgan Usmon qalin **lablarini burishtirib** nafrat bilan to`ng`illadi...*” (Ch.Aytmatov, “Jamila”)

*U hali boshqa chavandozlarga o`xshab egarga mixlanganday mahkam o`ltirishga odatlanmagan, buni ko`rgan ba`zi bek-u navkarlar o`zaro **ko`z urishtirishib**, zimdan **lab burishardi**.*

Ushbu misolda ikkita ishora fe`li qo`llangan: ko`z urishtirmoq va lab burishtirmoq. Ko`rinadiki, labini burmoq, labini burishtirmoq ishora fe`llari bir xil ma`noda qo`llanadi.

---

<sup>19</sup>O`zbek tilining izohli lug`ati 170-bet.

<sup>20</sup>O`zbek tilining izohli lug`ati 480-bet.

*Akbarga quyuq ta`zim qilib, toj-u taxt bilan muborakbod etayotganda uning ko`zlaridan yosh oqayotgani ba`zilarni hayratga soldi, ba`zi beklar “hali bola-ku” degandek kishi bilmas lab burib qo`yishdi* (P.Qodirov, “Avlodlar dovoni”).

**Yelkasini qismoq** – 1. Sovuqdan yoki ruhiy azobdan boshini yelkalari orasiga olmoq. Yormat ko`chadan keldi, yelkasini qisib, tanchaga o`tirdi. 2. Inkor yoki taajjub; “yo`q”, “bilmayman” ma`nolarini ifodalovchi harakat (O`TIL, 7-bet). Ushbu ishora fe`li ham polisemantik xususiyatga ega.

Inkor yoki taajjub ma`nosida qo`llanadi: *“Sizlarning ham nafaslaring qisyaptimi? deb so`rasam, ular hayron bo`lib, yelka qisishadi”* (Ulug`bek Hamdam, “Muvozanat”).

“Yo`q”, “bilmayman” ma`nosida qo`llanadi: *-Keyin-chi, -deb so`radi Salohiddin. Qiz “bilmadim” degan ma`noda yelka qisib qo`ygach, bir oz zardali ohangda yana so`radi...* (T.Malik, “Iblis devori”).

*-Bu chumchuqlar ko`pdan beri shu yerdami deb so`radi Hazrat.*

*Bolakay yelka qisdi.* (Isajon Sulton “Boqiy darbadar”);

- Lekin muzey eshigini qoqqanimiz qiziq bo`ldi, - dedi u yana, - shahar juda ham o`zgarib ketibdi-da, a?..

Charchagan Azimjon **yelkasini qisdi** ( Asqad Muxtor)

**Burnini jiyirmoq** – ensasi qotmoq, g`ashi kelmoq (O`TIL, 84-bet) Bu ishora fe`l salbiy, ko`ngilsiz holatlarni ifodalaydi.

*Birdan achimsiq ter hidi kelib, ona dimog`iga urildi. U burnini jiyirib, yuzini teskari burdi.* (S.Ahmad, “Ufq”);

Bularning hammasi juda g`aroyib-ku, - dedi polkovnik **burnini jiyirib** (U.S.Moem);

Shudha qaytib kelgach, **burnini jiyirib, peshonasini tirishtirdi-da**, eng avval aktrisalar olamiga qadam bosgani uchun gunohiga ma`rifat tilab, tavbatazarru qildi. (R.Thakur)

**Peshonasini tirishtirmoq**– ensasi qotmoq, yoki jahli chiqmoq (O`TIL, 253-bet). Imo-ishora so`zlari vaziyatning og`irligini ifodalashga xizmat qilgan. Bir o`rinda ketma-ket ikki ishora fe`li qo`llanilmoqda.

Shudha qaytib kelgach, **burnini jiyirib, peshonasini tirishtirdi-da**, eng avval aktrisalar olamiga qadam bosgani uchun gunohiga ma`rifat tilab, tavbatazarru qildi. (R.Thakur);

Mansur bir nafas **peshonasini tirishtirib**, o`ylanib turdi-da, eshik tutqichiga qo`l cho`zdi. (O`.Hoshimov) (Ushbu misol O`TIL dan olindi).

**Ko`z qismoq** – biron narsani bildirish, ishora qilish uchun ko`zini (odatda, bittasini) yummoq (qismoq). (O`TIL, 444-bet).

Ko`z qismoq ishora fe`li haqida Abdulhamid Nurmonov domla quyidagicha fikr bildiradilar:

Hazil ma`nosida:

*Qumriniso Sobiraxonga ko`z qisib:*

*-O`yin-kulgimizning boshi Baxrixonning to`yi bo`ladi,- dedi. (A.Qahhor); Qizini shunday odamlarga bergan qaynonalar yog`yeb, sharbat ichsalar kerak, - dedi mulla Sulaymon Aniqulga ko`z qisib. (Sh.Rashidov)*

“Kulma” ma`nosida:

*Men kulib yuborgan edim, sherigim turtib ko`z qisdi.(A.Qahhor);*

“Kelishish” ma`nosida:

*Ular anchadan beri bir-biri bilan ko`z qisishib yurar ekan.(“O`zbek xalq ertaklari);*

“Ahamiyati yo`q” ma`nosida:

Qalandarov juda xijolatli bir marosimni o`tkazayotganday qip-qizarib, iljayib, ko`zi ko`ziga tushgan odamga “mayli, qo`ya ber, ahamiyati yo`q” degan ma`noda **ko`z qisib** tikka turar edi. (A.Qahhor)<sup>21</sup>

Bundan tashqari ko`z suzmoq ishora fe`li ham mavjud. Ko`z suzmoq – noz-ishva bilan qaramoq, ko`zlarini yarim yummoq. (O`TIL, 583-bet)

**Qosh chimirmoq** – qoshni chimirmoq, qoshni qoqmoq (O`TIL, 352-bet) chimirilmoq – 1. Chimirmoq 2. Qosh-qovoqni, peshonani chimirmoq (taajjub, achchiqlanish va shu kabi his-tuyg`ularni ifodalash uchun qo`llanadi. (O`TIL, 486-bet)

Ona yuzin qoplar g`am,

**Chimirgancha qoshini**

Asta suyar qo`liga

Oppoq sochli boshini (S. Yesenin, Erkin Vohidov tarimasi);

*Ikromjon butun borlig`ini, bugunini, ertasini bag`ishlagan yolg`iz farzandiga qarab birdan jirkandi. **Qoshlari chimirilib, peshanalari tirishdi.*** (S.Ahmad)

Bu parchada ikki ishora fe`lining ketma-ket qo`llanishi norozilikning yuqori ko`rinishini namoyon qilmoqda.

So`zni cho`zmayman: men sizdan ketdim, Haqimni bersang'iz bas!

Mirzakarimboy o`siq **qoshlarini chimirib**, sukut qildi. (Oybek).

Nima senga og`irligim tushdimi? - to`ng`illadi Sarsonboy ota oftob sarg`aytirgan siyrak qoshlarini chimirib. (O`lmas Umarbekov)

---

<sup>21</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар I жилд, 176-бет.

### **3-fasl. Inson tana a'zolari bilan bog'liq imo-ishora ifodalovchi fe'llarning frazeologizm orqali berilishi**

“O'zbek tilining izohli lug'ati” ga kiritilmagan bir qator imo-ishora birikmalar mavjud. Ular nutq vaziyatiga mos tarzda kundalik hayotda qo'llanib kelmoqda.

|                                              |                                                      |
|----------------------------------------------|------------------------------------------------------|
| <b>1. Tilini chiqarmoq</b>                   | <b>9. Ko'rsatkich barmoq bilan bo'yinga chertish</b> |
| <b>2. Bosh barmog'ini yuqoriga ko'tarmoq</b> | 10. Lab ustini ko'rsatkich barmoq bilan silamoq      |
| <b>3. Qo'lini musht qilmoq</b>               | 11. Qosh ustini ko'rsatkich barmoq bilan silamoq     |
| <b>4. Labini tishlamoq</b>                   | 12. chakkaga ko'rsatkich barmoq bilan urish          |
| <b>5. Ko'rsatkich barmoqni labiga bosmoq</b> | 13. Ko'rsatkich barmog'ini yuziga tekkazish          |

|                                 |                                              |
|---------------------------------|----------------------------------------------|
| 6. Ko`zlarini katta ochmoq      | 14. Boshni sarak-sarak qilmoq                |
| 7. Tishini g`ichirlatmoq        | 15. Bosh barmog`ini pastga yo`naltirish      |
| 8. Qo`lni bir-biriga ishqalamoq | 16. Ko`rsatkich barmog`ini chakkasiga burash |

**Tishini g`ichirlatmoq** – yuqori va pastki tishlarini bir-biriga qattiq tegizmoq. Bu kinetik ifoda jahlni, norozilikni ko`rsatadi:

*Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o`girib. **tishini g`ichirlatdi.**(O`.Hoshimov).*

Tursunboy titrab ketdi. Qo`llari mushtga aylandi. Tishlari g`ichirladi. (S.Ahmad).

**Tilini chiqarmoq**– Odatda til chiqarilganda mazax ma`nosini ifodalaydi. Lekin ayrim hollarda biron bir ishni noto`g`ri qilganda, hijolat bo`lganda til chiqariladi, xuddi “voyyy” degandek. Barmog`ini tishlamoq turg`un kompleksi ham aynan shu ma`noni, “esiz”, “endi nima qilaman” kabi ma`nolarni ifodalaydi.

Ermak ma`nosida qo`llanishi:

*Men qayoqdan bilay! Qo`yvor! deb qo`limdan yulqinib chiqdi-da, qochib ketayotib **tilini ko`rsatib qo`ydi.*** Bu yerda “mazah” lash, “bopladimmi”, “alam

qilsin” degan ma`nolarda qo`llanilmoqda. Ko`proq yosh bolalar nutqida shunday imo-ishora qo`llanadi.

Shuningdek og`zaki nutqda tilini takillatmoq ishora fe`li ham qo`llanadi. Bu ishora fe`li ko`pincha hayratni ifodalaydi:

*Bunaqangi hikoya otasiga ham ma`qul bo`ldi. U hayratlanib tilini takillatib qo`yar va har safar o`g`liga derdi: “Eshitdingmi? Dunyoda qanday mo`jizalar bor-a!”* (Ch.Aytmatov)

**Labini tishlamoq** birikmasi kommunikatsiya jarayonida “achinish”, “qo`lidan hech narsa kelmaslik” kabi ma`nolarni bildiradi.

**Labini qimtimoq** birikmasi esa “uyalish”, “andisha” qilish kabi ma`nolarni ifodalaydi.

**Kaftni bir-biriga ishqalamoq** – biron-bir ishga jiddiy kirishishdan oldin ayni shu ishora qilinadi. Masalan, dasturxonga ovqat olib kelishsa, rohatlanib kaftlarini bir-biriga ishqab, “qani” degan mazmunda ovqatni boshlashadi. Yoki pul sanashdan oldin ham xuddi shunday harakat qilishadi.

**Musht tuymoq** – qo`l panjasini musht tuyib, tinglovchiga ko`rsatilganda, “ogohlantirish”, “hali ko`rasan” , “kuningni ko`rsataman” kabi ma`nolar anglashiladi.

**Ko`zlarini katta-katta ochmoq** - hayratlanish, ajablanish, lol qolish kabi ma`nolarni ifodalaydi. Og`izning ochilib qolishi ham ayni shu ma`noni ifodalaydi.

**Boshini sarak-sarak qilish:**

Foydasi yo`q! - dedi Zavrak Zulfiqorga boshini sarak- sarak qilib. - Bu to`ng`izning shunaqaligini bilardim! Ilgari ham bir bor shunaqa qilgan... Savdogarning o`g`li-da...(Mirmuhsin)

**Ko`rsatkich barmog`ini yuqoriga ko`tarish:**

. Hamma hayratlanib, bir og‘izdan «O!» deyishdi va **ko‘rsatkich barmoqlarini yuqori ko‘tarib**, boshlarini liqillatib qo‘yishdi. (Andersen)

**Ko‘rsatkich barmoqni chakkasiga buramoq** - esi og‘ib qolgan, jinni deyish ma‘nosida ishlatiladi.

Shunga shunchalik chopib keldingmi? - Seydahmad xaxolab kuldi. - Mo‘min boboning esi kirarli-chiqarli bo‘lib qolgan, - u **barmog‘ini chekkasiga bosib aylantirdi**, - sen ham shunaqa chog‘i! (Ch.Aytmatov).

**Ko‘rsatkich barmog‘ini chakkasiga o‘qtalmoq** – ko‘rsatkich barmoqni pistolet qilmoq “o‘ldirmoq” ma‘nosida qo‘llaniladi:

*Endi u nomering o‘tmaydi, endi javob berishing kerak, do‘stim , -hazilga oldi Sodiq, ko‘rsatkich barmog‘ini pistolet qilib Yusufga o‘qtalgancha...(U.Hamdani).*

**Ko‘rsatkich barmog‘ini labiga bosmoq** - bu turg‘un so‘z kompleksi “jim” deyish o‘rniga qo‘llaniladi. *Ochil buva mo‘ylovining bir uchi bilan kulib, labiga barmoq bosdi: “jim”(Asqad Muxtor).*

Ko‘rsatkich barmoq harakatlar orasida juda ko‘p qo‘llanadi. Erkin Vohidovning “Ko‘rsatkich barmoq” she‘ri mavjud:

Barmoqlaring ichra baridan ko‘proq

Senga xizmat qildi ko‘rsatkich barmoq.

**Labga bosding, shiftga ishora qilding**

Ko‘pni tilsiz qilding, bechora qilding

**Bir zamon ko‘rsatkich barmoqni qo‘llab**

Omon qolding, dorga do‘stingni yo‘llab.

Endi oshkorlikdan to‘yib turibsan,

## **Barmoqni chakkangga qo'yib turibsan.**

Ushbu she'rda ko'rsatkich barmoq bilan bog'liq to'rtta ishora fe'li bor:

1. Labga bosish : “jim” ma'nosida;
2. Yuqoriga ishora – hukumatga ishora
3. Biron bir shaxsni ko'rsatish. Bu yerda esa “sotish”, “chaqish” ma'nosida qo'llanmoqda.
4. Barmoqni chakkaga qo'yish – o'ldirish.

**Ko'rsatkich barmoq bilan bo'yinga chertish** – “qittay-qittay” ga ishora qilish. Bu harakat alkogol mahsulotini ifodalaydi.

Lab ustini ko'rsatkich barmoq bilan silamoq – o'zbeklarda bu erkak kishimi deb so'rash uchun qo'llanadi, shuningdek, mo'ylovni ifodalaydi, ya'ni “mo'ylovi bormi yoki yo'qmi” deb so'rash o'rniga shunday ishora qo'llash mumkin.

Qosh ustini ko'rsatkich barmoq bilan silamoq – bu esa ayol kishini ifodalash uchun qo'llanadi.

Chakkaga ko'rsatkich barmoq bilan urish – bu harakat bajarilsa, odatda, “esing bormi seni”, “aqling joyidami” kabi ma'nolarni ifodalagan bo'ladi.

**Ko'rsatkich barmoqni yuziga tekkizish** – “uyat bormi o'zi senda” degan ma'noda qo'llanadi. Ayniqsa, yosh bolalar ana shunday harakat qilib, “uyat,uyat” deb qo'yishadi.

O'zbek mentalitetiga xos bo'lgan qo'lini ko'ksiga qo'yish ham mavjud. Bu ishora o'zida bir qancha semalarni – salomlashish, hurmat, itoat va hokazolarni birlashtiradi.

Do'stlar, xush kelibsiz, ko'ksimizda qo'l

Oq oltin nuridan yozdik, sizga yo`l. (E.Vohidov)

Bosh barmog`ini pastga yo`naltirish – “ishlar yomon” ligi, “ahvol chatoq”ligini bildirish uchun qo`llanadi. Bu ishorani juda ko`pchilik tushunadi.



Bosh barmoqni yuqoriga ko`tarish – “zo`r” ma`nosida ishlatiladi:



“Zo`r” mi?



“Zo`r!”

Bosh barmoq bilan ko'rsatkich barmoq birlashadi va "hammasi joyida", "menga yoqdi" kabi ma'nolar anglashiladi. Bu ishorani ham dunyodagi yoshlarning deyarli barchasi birday tushunishadi.



## Xulosa

Ushbu tadqiqot davomida fe'lining ma'noviy guruhlariga mansub ishora fe'llarini chuqur o'rganishga harakat qildim. Dastlabki yo'naltiruvchi manba sifatida shu mavzu yuzasidan ish olib borgan ustozlarning maqolalarini o'rgandim. O'rganganlarim asosida "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi ishora fe'llarini tadqiq qildim. Ularga badiiy asarlardan mos misollar topdim. Natijada o'zbek tilida qo'llanadigan turg'un so'zlar kompleksining izohli lug'atda mavjud va mavjud bo'lmagan variantlarini ko'rib chiqdim, ularni o'zaro solishtirib, umumlashtiruvchi va farqlovchi semalarini ajratdim.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, imo -ishora – paralingvistik vositalar ham xalqning tabiatiga dahldor jihat ekan. Nutqda qo'llanuvchi imo-ishoralar ma'lum bir xalqning o'zigagina tegishli (o'zbeklarda qo'lni ko'ksiga qo'yish, koreyslarda ta'zim, g'arbda bosh kiyimni qo'lga olish); butun dunyo tushunadigan (bosh barmoqni yuqoriga ko'tarish, "OK" kabilar) kinetik vosita bo'lishi mumkin ekan. Boshqa til xususiyatlarini o'rganganda mana shu jihatlarni ham e'tiborga olib qo'ysa, foydadan holi bo'lmaydi.

Shuningdek, tilning leksik qatlamidagi so'zlar eskirgani singari imo-ishoralar ham ma'lum bir davrga kelib eskirishi mumkin ekan.

Nutq vaziyatida imo-ishora va mimikalardan foydalanish sabablari ham turlicha ekan. Lekin nutq vaziyatiga mos mimikadan foydalanish notiqning mahorati bilan belgilanar ekan.

Ishora fe'llari tarkibini kuzatar ekanman, ular bir necha komponentlardan tashkil topganligini ko'rdim.

Shunisi ahamiyatliki, tana a'zolaridan bosh so'zi bilan bog'liq ishora fe'llari juda ham ko'p. Ular kontekstdan ajratilganda, boshqa bir ma'noni

anglatadi. Shuning uchun bunday soʻzlarning qoʻllanishini kontekst doirasida oʻrganish maʼqul.

Biz tadqiqotimizda eʼtibordan qolgan, ishlash, tadqiq qilish kerak boʻlgan oʻrinlar bisyor. Ularni chuqur oʻrganish va tadqiq qilish bugungi tilshunoslik uchun juda ham muhimdir. Kelgusi ishlarda bunday kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qilamiz.

Mazkur tadqiqotimizda inson tana aʼzolari nomlari bilan bogʻliq frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyati haqida soʻz yuritiladi. Bu ishda frazeologik birliklarning badiiy matnda ifodalagan maʼno va matnda tashqi nutqqa olingan ifodaydigan maʼnolarining qiyosi oʻrganildi. Frazemalarning badiiy ifodasi, oʻziga xos xususiyatlari, valentlik belgilari, sintagmatik munosabati va dennotativ maʼno ottenkalari oʻrganildi. Matnning til xususiyati yakka holda oʻrganilmaydi. Matnda keltirilayotgan boshqa birliklar, tasvir vositalari bilan birgalikda oʻrganiladi. Shuningdek, iboralar ham doim bir xil maʼnoga ega emas. Nutq vaziyatida boshqa maʼno nutqdan tashqarida esa boshqa maʼno ifodalashi mumkin. Ularning mana shu xususiyatlariga ham toʻxtab oʻtildi. Frazeologizmlar maʼnosi leksema teng boʻlsa-da, leksemaga nisbatan ancha murakkab birlik hisoblanadi.

**Tayanch soʻz va iboralar:** valentlik, adresant, adresat, sintagmatik munosabat, frazeologik maʼnodoshlik, frazeologik qurshov va boshq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” Prezident Karimovning I.A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqidan. Toshkent 1997-yil.
2. “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” I.A.Karimov Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti 1997-yil.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlool va taraqqiyot yo‘li. Toshkent “O‘zbekiston” 1992-y.
4. Karimov I. O‘zbekiston buyuk kelajak sari, Toshkent, O‘zbekiston 1998 y
5. “O‘zbekiston, Milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura”. Karimov I.A., 1-tom “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent. 1996-yil.
6. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma‘naviyat, Toshkent. 2008-yil
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.
8. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. I jild,
9. Saidxonov M. “Ishora fe‘llarini o‘rgatish xususida” / Til va adabiyot ta‘limi, 2009//10, 7-bet.
10. Ulug‘bek Hamdam. Muvozanat. Roman. .T., 2007
11. Said Ahmad. “Ufq” romani
12. Tohir Malik. “Iblis devori”, “Nafs kishanlari”
13. Erkin Vohidov. Saylanma . 2001. I, II, III.
14. Rashod Nuri Guntekin. Choliqushi, M.Ismoilij tarjimasi.
15. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.
16. M.Yo‘ldoshev. Badiij matnning lisonij tahlili.
17. A. Nurmonov. Hozirgi o‘zbek adabij tili.
18. “O‘zbek tili va adabijoti” jurnali / 2016
19. Sh.Abdurahmonov. O‘zbek badiij nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi lisonij vositalar.
20. A. Qahhor. “Anor” qissa va hikoyalar to‘plami.

- 21.O'zbek tilining izohli lug'ati. 170-bet.
- 22.Rahmatulayev. Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" / "O'qituvchi" nashriyoti, T.1978-yil.
- 23.M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev, D. Muhamedova. O'zbek tili praktikumi. Toshkent. "Iqtisod-Moliya", 2006 yil. 76-bet.
- 24.Nurmonov A. Tanlangan asarlar 1 jild.
- 25.Saidxonov Ma'murjon "Ishora fe'llarini o'rgatish xususida" Til va adabiyot ta'limi 2009-yil 10-son.
26. G'ulomov A, Nematov H, Ona tili ta'limi mazmuni " Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma " T "O'qituvchi", 1995
- 27.Xojiyev A, Begmatov E, " Hozirgi o'zbek adabiy tili va uni o'rganishning aktual masalalari " O'zbek tili va adabiyoti 1192.5-son
- 28.Berdiyev X, Rasulov R, Yo'ldoshev B, " O'zbek frazeologiyasidan materiallar " O'quv qo'llanmasi 1-2-3-qismlar. Samarqand 1971-1979-1983
- 29.Begmatov E . Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari, Toshkent 1985
30. Iskandarova Sh.M. O'zbek tili leksikasining mazmuniy maydon sifatida o'rganish Filologiya fanlari doktori diss.Avtoref. Toshkent 1999 yil
- 31.Ne'matova G.X " O'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari : tuzilishi va badiiy qo'llanish: Filologiya fanlari nomzodi diss. Avtoref, 1998-y
- 32.Rasulov R, Umirov I, " O'zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug'ati " Toshkent, O'qituvchi 1997-yil
- 33.Ne'matov X, Rasulov R, " O'zbek tili sitem leksikologiyasi asoslari " Toshkent, O'qituvchi 1995-yil

**Internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar ro'yxati:**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. [www.google.uz](http://www.google.uz)
3. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)
4. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
5. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)